

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK

AYIMBETOVA GULAYIM IZZETOVNA

**«O‘ZBEK SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZ
YARATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(1990-2000 yillar misolida)»**

Mutaxassislik: 5A111201 - O‘zbek tili va adabiyoti

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
I.DILMANOV,
filologiya fanlari nomzodi

NUKUS – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I - BOB	
1990 YILLAR SHE’RIYATIDA POETIK FIKRNING YANGILANISHI	
1.1. O‘zbek she’riyatida istiqlool g‘oyalari talqini.....	10
1.2. Badiiy tasvir tamoyillarining teranlashishi.....	25
II - BOB	
2000 YILLAR SHE’RIYATIDA LIRIK OBRAZ TADRIJI VA TAKOMILI	
2.1. Shavkat Rahmonning lirikada poetik obraz yaratishdagi o‘ziga xosligi.....	34
2.2. Farida Afro‘z she’riyatining badiiy xususiyatlari.....	44
III - BOB	
ISTIQLOL DAVRI SHE’RIYATIDA POETIK MAHORATNING SHAKLLANISH	
JARAYONLARI.....	60
XULOSA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	85

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Xalqning, millatning o'zligini tanish, shaxs erkinligi tuyg'usini ifodalashda she'riyatning roli va o'rni beqiyosdir. San'atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi-shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi. Natijada o'sha ifoda ob'ekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan, e'tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi. Xususan, so'z san'ati o'sha tasvir ob'ektini o'zining poetik obraz tizimiga aylantirar ekan, voqelikni, odamlar taqdirini badiiy tadqiq etarkan, ularni go'zallik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qayta jilolantiradi. Shunisi muhimki, she'riyat har doim tasvir ob'ektiga ezgulik, go'zallik, adolat va h.k. bashariy qadriyatlar asosida munosabat bildiradi. Aynan ana shu mohiyati bilan san'at asari umumbashariy mazmun kasb etadi. Badiiy asarning boqiy qadriyat maqomiga ega bo'lishi, e'zoz - ehtirom ko'rishining boisi ham shunda.

Muhtaram Yurtboshimiz istiqlool adabiyoti oldida turgan vazifalarni, xususan, bashariy qadriyatlar yaratishdek mas'ul burchini alohida ta'kidlayotgani bejiz emas: "Ijod-bu o'zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir. Chinakam ijodkor odamlarning dardu g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz".¹ Darhaqiqat, istiqlool davri badiiyatining istiqbolini yangi tarix yaratayotgan millatning o'tmishi, buguni va kelajagi tashkil etadi. Bugungi kun odamlarining istiqlool manfaatlaridan kelib chiqib, boqiy moddiy va ma'naviy boyliklar bunyod etishdek ezgu yumushlari asos vazifasini o'taydi. Binobarin, ma'naviy, milliy-umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lagan, qaramlikka qarshi asarlarga boy adabiyot, oxir oqibat iqtisodiy - ma'naviy kamolot uchun xizmat qiladi. Demak, hurlik va vatanparvarlikni ruhiga joylagan,

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent, «O'zbekiston», 2009, 6-7-betlar.

hayotni yuksak poetik shaklda badiiy tadqiq etgan she'riyat namunalarini haqqoniy tahlil etish, shu orqali yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mustaqillik mafkurasining va she'riyat qoninlarining ayrim qirralarini ochib beradi. Zero, chinakam she'riyat hayotining, inson ruhiyatining eng murakkab va chigal tomonlarini favqulodda sa'natkorona aks ettira oladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda bu ezgu an'anani davom ettiruvchi she'riyatimiz har jihatdan kamolga etib, o'z taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi, ko'p qiyinchiliklarga, ziddiyatlarga, ojizliklariga qaramay, nazmimizning eng yaxshi namunalarida namoyon bo'layotgan yangi, hayotbaxsh tamoiyillar uning ertasiga katta umid bilan qarashga imkon bermoqda. Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga, jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. Istiqlool arafasida va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini she'riyatimiz namunalari misolida ham ko'rish mumkin.

Har bir davr, har bir avlod, har bir san'atkor ideali xalq hayoti haqiqatlarini idrok etish hamda ertangi kunga nazar tashlash asosida yuzaga kelar ekan, u xoh avlodlarning bo'lsin, xoh yakka shaxslarning bo'lsin, ma'naviy izlanishlari asosida bunyod bo'larkan.

Shoirlarning hayotni poetik obraz orqali tadqiq etish uslubi ham zamonga mos ravishda yangilanib, bu o'zgarishlar she'rning ruhida ham, shaklida ham namoyon bo'lmoqda.

Shoirlar ijodi orqali biz hayotdagi murakkabliklarni, ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan zamondoshimizning o'y-tuyg'ularini his etamiz. Ular she'riyatining «ruhiy iqlimi»ga nazar solsak, shoirlarning asarlariga xos

bir xususiyat-hayotni va insonni she'riy yo'l bilan analitik tadqiq etish tendentsiyasi takomillashib borayotgani seziladi. Bu hodisa badiiy so'z madaniyati, badiiy tafakkur taraqqiyoti uchun ham begona emas. Ming-ming yillar silsilasida har bir avlod hayotni, jamiyat va insonni yangicha badiiy idrok etish tamoiyillari

bilan ajralib turadi. Badiiy soʻzning yangi-yangi ifoda imkoniyatlarini kashf etishadi.

Hozirgi mustaqillik jarayoni va unda yuz berayotgan voqealar oqimi oʻzbek sheʼriyatiga yangicha mazmun bermoqda va shunga yarasha yangi uslubiy, shakliy izlanishlarni zaruratga aylantirmoqda. Badiiy adabiyotning bu zaruratni amalga oshirishdagi asosiy vazifasi kitobxonlarda yangicha badiiy tafakkurni shakllantirishdan iboratdir.

Jahon adabiyotida ham gʻoyaviy, ham badiiy jihatdan etakchi oʻrin egallab kelayotgan sheʼriyat haqida rang-barang fikrlar, turli-tuman kontsepsiyalar bildirilib kelinmoqda. Ular ushbu janrning genetik asoslari, tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari, sheʼriyat poetikasida yuz berayotgan oʻzgarishlar haqida goh bir tomonlama, goh gʻayri ilmiy, goh ikkinchi tomonga sunʼiy burib yuborishlar koʻzga tashlanmoqda. Mana shunday holatda muayyan milliy sheʼriyat materiali asosida mantiqiy jihatdan izchil kontseptual fikr yuritish ancha mushkul ish. Bunda janr genezisi, gʻoyaviy-badiiy tadriji, sheʼriyat tabiatida yuz berayotgan Gʻarb va Sharq sintezi hodisalariga alohida ahamiyat berilishi lozim. Oʻtgan asr oxirlarida oʻzbek sheʼriyati poetikasida namoyon boʻlayotgan evrilishlar hamda klassik sheʼriyat tamoyillari oʻrtasidagi nisbatlar, ularning istiqbolidagi rivojlanish tendentsiyalari aniq materiallar tahlili orqali ochib beriladi.

XX asrning keyingi davrlardagi sheʼriyatning badiiy-estetik izlanishlarisiz XX asrning soʻnggi yillari va XXI asr boshlari badiiy madaniyatimizni tasavvur qilish qiyin. Mazkur davr sheʼriyati taraqqiyotida tutgan oʻrni va rolini, badiiy-estetik tafakkur rivojiga qoʻshgan ulushini koʻrsatish poeziyamizning aynan shu bosqichdagi taraqqiyot tendentsiyalari haqida fikr yuritish imkonini yaratadi.

Istiqlol sheʼriyati tub sifat oʻzgarishlarini boshidan kechirdi. U mafkuraviy yugurdaklik xizmatidan qutuldi. Shu tarzda badiiy adabiyot davlat adabiyoti boʻlmay qoldi.

Eng muhimi, shoirlarimiz olam, odam hakida avvalgidan yangicha fikrlash mumkinligini angladilar va o'zlari ham shunga ko'nika boshladilar. Poeziyada lirik qahramonni tasvirlash tamoyillarida ham jiddiy yangilanishlar ro'y berdi.

Shuning uchun ham o'tgan asrning o'n yilligi o'zbek adabiyotida istiqlool she'riyati deb atalmish estetik hodisa to'liq shakllanishiga imkon berganligi bilan xarakterlanadi. U yo'q joydan tasodifan paydo bo'lib qolgan emasdi. Bu she'riyat ko'p asrlik milliy badiiyatimizning mantiqiy davomi va merosixo'ri edi.

O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega istiqlool she'riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotidagi alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi. Bu badiiy hodisaga istiqlool she'riyati degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlool davrida yaratilgani, millat ahlini ozodlikka undagani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nligini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki istiqlool huquqiy atama bo'lishi bilan birgalikda ruhoniyyat-ma'naviy tushuncha hamdir. Ya'ni mutsaqillik kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi.

Istiqlool butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirdi, uning adoqsiz kengligini, purviqor cho'qqilarini, poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirradi olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatadi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi. Shuning uchun ham bu she'riyat oldingilaridan farq qilguvchi bir qator xususiyatlarga ega bo'ldi.

Istiqlool she'riyatining Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Tursun Ali, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Zebo Mirza, Farida Afro'z singari

vakillarining asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyon bo'ladi. Istiqlol she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy, olis va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga intilish kuchaydi. Unda ko'ngilni tozalashga alohida e'tibor qaratildi.

Rauf Parfining "Adashgan ruh", "Qora devor", "Munojot", "Sensiz", Azim Suyunning "Istig'for", "Bitiklar", Abduvali Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", Iqbol Mirzoning "Seni deb" singari she'riy asarlari mustaqillik davri o'zbek nazmining etuk namunalaridir. Bu she'riyat shakliy izlanishlar miqyosi kengayganligi bilan xarakterlanadi. Unda chiqish va botish adabiyotidagi samarali tajribalarni o'rganish va boyitishga intilish g'oyat kuchaydi. Ifodada to'liq erkinlikka intilish istagi o'zbek istiqol she'riyatida yangi shakllarga ehtiyoj uyg'otganligi uchun shakliy imkoniyatlarni kengaytirish yo'lidan borilmoqda.

Adabiyotshunoslikda 1990-2000 yillar o'zbek she'riyatiga oid keyingi o'n yillar mobaynida ilmiy-nazariy kuzatishlar olib borilgan. Aslida bu ilmiy ish janr tarzi, tadriji va taraqqiyoti tamoyillari bo'yicha olib borilgan yirik fundamental tadqiqotning muayyan qismlaridan iborat. Mazkur ishning jahon she'riyati kontekstida o'zbek she'riyatining bugungi rivojida belgilovchi rol o'ynayotgan tamoyillar haqida yaxlit kontseptual bir xulosaga kela oladi. Zotan, har bir tadqiqotning, u maqola bo'ladimi, monografiya bo'ladimi, bosh maqsadi muayyan ilmiy kontseptsyani olg'a surishdan iborat.

Har bir davrning o'ziga xos hayotiy haqiqati va muammolarining badiiy adabiyotda aks etishi birinchi navbatda she'riyatdagi obrazlar, ularning ma'naviy olamini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Milliy istiqol tufayli badiiy ijod siyosati qaramlikdan ajratilgani singari ilmiy ishlarda ham milliy istiqol mafkurasiga tayangan holda, haqqoniy tahlil usullarini qo'llashga keng yo'l ochib berildi. Biz, ushbu tadqiqotimizda bilvosita shu imkoniyatdan to'laqonli foydalanishga harakat qildik. Asrimiz o'zbek adabiyotiga bir nazar tashlab, 1990-2000 yillar shoirlarining poetik obraz yaratishda erishgan yutuqlarini A.Oripov, E.Vohidov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf,

H.Xudoyberdieva, Oydin Hojiev, Faxriyor, Farida Afro‘z poeziyasi misolida baholi qudrat ochib berishga intildik.

Mazkur shoirlarning ijodi bo‘yicha o‘zbek adabiyotshunosligida, turli haftalik, jurnallar va gazetalarda mazkur davr she‘rlariga oid kuzatishlari maqola sifatida e‘lon qilingan. Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, No‘mon Rahimjonov, Ulug‘bek Hamdam kabi olimlarning kitoblarida ham istiqlol davri she‘riyatidagi izlanishlar, o‘ziga xos xususiyatlari va yangilik tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni yoritish va amalga oshirish nazarda tutiladi:

- Istiqlol she‘riyatini milliy badiiyatimizdan mustahkam o‘rin olgan estetik hodisa sifatida ochib berish;
- Istiqlol she‘riyatida poetik fikrning yangilanishiga olib kelgan asosiy omillarni aniqlash;
- o‘zbek she‘riyatida badiiy tasvir tamoyillarining teranlashishida davrning ijtimoiy, maishiy, madaniy shart-sharoitlari orasidagi bog‘liqlikni ochib ko‘rsatish;
- Shavkat Rahmonning poetik obraz yaratishda badiiy detallar qo‘llash uslubini aniqlash;
- Farida Afro‘z she‘riyatining badiiy xususiyatlarini o‘rganish;
- Shoiri ijodida ifoda ruhiyatining o‘rnini o‘rganish;
- Istiqlol davri she‘riyatidagi badiiy – estetik izlanishlarni tahlil etish;
- Yangilangan o‘zbek she‘riyatida poetik obrazlar yaratish vositalarini ko‘rsatish;

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati. Tadqiqot xulosalari zamonaviy o‘zbek she‘riyatining bugungi holatini tasavvur etish, poetik obraz yaratishdagi yangi shakliy izlanishlarning ta‘siri va imkoniyatlarini anglash, shu jumladan hozirgi o‘zbek modern she‘riyati bo‘yicha nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini olib

borish, Shavkat Rahmon ijodiga tegishli maxsus seminarlar o'tkazishda foydalanish, istiqlool davri shoirlari ijodining umuman o'zbek she'riyati rivojida tutgan o'rnini ko'rsatib berish va ijodkor badiiy mahoratini ilmiy tasavvur qilishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalaridan o'zbek adabiy tanqidchiligida, istiqlool she'riyatiga tegishli maxsus seminarlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Magistrlik dissertatsiyaning metodologik asosini, asosan g'oyaviy nuqti nazardan Prezidentimiz Islom Karimovning ma'naviy mafkuraviy fikrlariga, ilmiy nazariy jihatdan o'zbek adabiyotshunos olimlaridan Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'ofurov, No'monjon Rahimjonov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Ulug'bek Hamdamlarning ilmiy qarashlariga murojaat qilindi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. «O'zbek she'riyatida poetik obraz yaratishning o'ziga xos xususiyatlari» deya nomlangan ushbu mavzu, avvalo, masalaning yangi tarzda birinchi marta qo'yilganligi, tadqiqot asosida 1990-2000 yillar she'riyati turganligi bilan yangilikdir.

Magistrlik dissertatsiyada o'zbek she'riyatida fikrning yangilanishi, poetik obraz yaratish, she'riyatda inson obrazining aks etishi, obrazning ijtimoiy, falsafiy ma'no qirralari tadqiq etiladi. Istiqlool yillarida o'zbek modern she'riyatining o'zbek badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan va ilmiy tahlilga tortilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti sifatida A.Oripov, E.Vohidov, Azim Suyun, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, H.Xudoyberdieva, Oydin Hojjeva, Faxriyor va Farida Afro'zlarning 1990-2000 yillarda yozgan she'rlari tahlilga tortildi. Lozim o'rinlarga taqqoslash, ilgari surilayotgan ilmiy fikrni dalillash uchun boshqa davrda yaratilgan she'rlariga ham murojaat qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 88 sahifani tashkil etadi.

1990 YILLAR O‘ZBEK SHE’RIYATIDA POETIK FIKRNING YANGILANISHI

1.1. O‘zbek she’riyatida istiqlol g‘oyalari talqini.

Mustaqillik yillari shoirlarimiz uchun astoydil izlanish va qizg‘in ijod qilish davri bo‘ldi. Albatta, bugungi kunda buning natijalari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zotan, o‘tgan qisqa davrda so‘z san’atining hamma janrlarida muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. She’riyat yangi mavzular, yangi g‘oya va obrazlar, yangicha talqin va tasvirlar bilan boyidi.

Bu yangi davrda, ayniqsa, she’riyatimizda xaqqoniylik va hozirjavoblik kuchaydi. Turg‘unlik yillarida inson hayoti ko‘pincha bir tomonlama, hech qanday kam-ko‘stsiz, dabdabali qilib, bo‘yab-bezab aks ettirilardi. Inson mehnati, uning ruhiyati yuzaki, bayramona qilib ifodalanardi.

Mustaqillik davriga kelib xalq va mamlakat hayotini yaxshilashga qaratilgan muammolar, oddiy inson qadr-qimmatini tiklash va ko‘tarish, ona Vatan va mustaqillik mavzulari tasviri birinchi o‘ringa chiqdi. O‘zbekiston mustaqilligidan faxrlanish to‘yg‘ulari baralla kuylandi. Abdulla Oripovning O‘zbekiston mustaqil respublika deb e‘lon qilinishi munosabati bilan yozgan she’rida ana shu xayotbaxsh tuyg‘u xalqona sodda va teran misralarda yorqin ifodalandi:

Safga tizil nabiram, otajonim, tur endi,
Mustaqillik nash’asin, haqqing bordir sur endi.
Qo‘lni berib qo‘llarga, bir tan bo‘lib yur endi.
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin.
O‘zbekning o‘z urug‘in ekanligi rost bo‘lsin.
O‘z qulingga olganing - yalov senga muborak,
Yuragingda so‘nmagan olov senga muborak.
Yondirolding qorlarni - qalov senga muborak.
Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo‘lsin,
O‘zbekning o‘z urug‘in ekanligi rost bo‘lsin.

She'riyatimizda mustaqillikni qutlash va ulug'lash g'oyasi uni asrash va mustahkamlash g'oyasi bilan chambarchas bog'liq holda aks ettirildi. Bir guruh shoirlar tomonidan 1991 yilda hozirjavoblik va tezkorlik bilan yaratilgan «Mustaqillik qasidasi»da mustaqillikning qadri hamma narsadan baland qo'yildi.¹ Uni ko'z qorachig'iday saqlash va mustahkamlash uchun bir tan, bir jon bo'lib harakat qilish, qiyinchiliklarni mardona yengib maqsad sari dadil qadam tashlash g'oyasi olg'a surildi. Qasida quyidagi singari tabiiy va otashin misralardan tashkil toptan:

Mustaqillik! Kuylayman seni
Bor ovozim, yo'llarim bilan.
Mustaqillik! Asrayman seni
Kerak bo'lsa qo'marim bilan...

Mustaqillik! Kutlayman seni,
Bor san'atim, bayotim bilan.
Mustaqillik! Asrayman seni,
Kerak bo'lsa hayotim bilan!...

Vatan mustaqillik nuriga to'lsin
Jahon xaritasi mukammal bo'lsin!

Shoirlarimiz mustaqillikni qo'llab-quvvatlab, uni har tomonlama mustahkamlash g'oyasini olg'a surar ekanlar, mustaqillikning asl mohiyatini fahr bilan ko'rsatib ozodlikni bebaho, buyuk ijtimoiy ne'mat sifatida ta'riflaydilar. Abdulla Oripovning «Oliy ne'mat» she'rida tasvirlanishicha, bir Xoja nogahon dardga yo'liqib, davo izlab elib yuguradi. Oxiri paymonasi to'lib, dunyodan umidini o'zadi. Shu choq eshigida ishlab yurgan va tabiblikka dahli bor bo'lgan bir qul kirib, uni davolaydi. Xoja shifo topadi va qulga «qilgan xizmatining yo'qdir bahosi», tila tilagingni, «sochayin boshingdan oltin va kumush», «istasang, mulkimning

¹ Tilak Jo'ra, Azim Suyun, A. Ko'chimov, T. Mirzo, M. Ulug', M. Murod qizi, Kutpibeka Raximboeva, S. Hakim, Sh. Samshova, A. Qutbiddin.

teng yarmin beray», deydi. Qul esa oltinning ham bahosi bor, agar mening xizmatim o'zingiz aytganingizdek, bebaho bo'lsa - bebaho ne'mat bering, deydi. Shunday qilib, qul behisob boylikka - oltinga ega bo'lishdan ko'ra, ozodlikni ustun qo'yadi va buni shoir mumtoz adabiyot an'alaridan ijodiy foydalangan holda mahorat bilan tasvirlab beradi.

Qul dedi: Bir ne'mat bordir - bebaho,
Unga sadqa bo'lsin molu mulk, dunyo.
Falaklar bekordir uning qoshida,
Malaklar bekordir uning qoshida.
Unga nisbat bersa - qafasdir jannat,
U shundoq tansiq his, tengi yo'q ne'mat.
-Uning nomi ne deb, qistardi Xoja,
Sirni bilmoqlikni istardi Xoja.
Qul dedi: - Bu ne'mat jondan-da totlik,
Nomi Ozodlikdir, nomi Ozodlik!

Shoirларimiz mustaqillikning xalqqa bergan imkoniyat va imtiyozlarini tasvirlab, uni dil-dildan ulug'lar ekanlar, mustaqillik yo'lining o'ziga xos qiyinchiliklarini ham yashirmasdan ochiq aks ettirdilar. Mustaqillik ishiga, mamlakat rivojiga tusqinlik qilayotgan nopoklik, manmanlik, noshukrlik, mansabparastlik, ish qilish o'rniga gap sotishlik, mahalliychilik singari ba'zi yaramas illatlarni fosh etdilar. Shoir Muhammad Yusuf mumtoz she'riyatimizning taniqli vakili Turdi-Farog'iy an'alarini yangi davrda rivojlantirib,

Qo'ygil Qo'qoningni, qo'ygil Surxoning,
Bir tuproq-ku axir, ota makoning...
Aziz vatandoshlar, menga ishonib
O'zbekni quritar mahalliychilik, - deb bong urdi.

Shoira Gulchehra Jo'raeva esa mustaqil mamlakatimizning gullab yashnashini ta'minlashda xalqimizning bir maqsad sari birlashib ish qilishi buyuk ahamiyatga ega ekanini nazarga olib, «birlashgan o'zar» degan xalq hikmati mazmunini she'r mag'ziga singdirib yubordi:

Ilhom birlash, imkon birlash,
inson birlash,
Maqsad birlash, matlab birlash,
vijdon birlash,
Buyuk davlat yo‘li birdir —
iymon birlash,
Quvvat birlash, qudrat birlash,
Turon birlash!

Mustaqillik davrida vujudga kelgan ijtimoiy lirika namunalari orasida 1999 yil 16 fevral voqealari munosabati bilan yozilgan she‘rlar ajralib turadi. Ha, rost, yurtimizda musaqilligimizning qadriga yetmay, uning buyuk ahamiyatini anglamay yoki anglashni istamay sarob ko‘chasida daydib yurgan ayrim nonko‘r shaxslar, e‘tiqodi soxta mansabparastlar ham yo‘q emas. 16 fevral voqealari buni ochiq ko‘rsatdi. O‘sha kuni Toshkentda bir hovuch xoinlar tomonidan tarihda misli ko‘rilmagan mudhish yovuzlik sodir etildi: O‘zbekiston mustaqilligini yo‘q qilishga va yurt-boshimiz umriga qilingan suiqasd muvaffaqiyatsiz o‘rinish bo‘lib o‘tdi. Xalqimiz esa bu yovuz suiqasdni ochiq qoralab, istiqlol yo‘lini, Prezidentimiz siyosatini mahkam turib himoya qildi. Haq yo‘lidan toyib, nopoklikka qo‘l urgan g‘arazgo‘y fitnachilarni la‘nat toshlari bilan savaladi.

Yozuvchilarimiz 16 fevral voqealariga munosabat bildirib yozgan asarlarida bu yovuzlikni mustaqillikka xuruj, xalqimizga suiqasd ekanini fosh etib, bizning ishimiz haq, istiqlol yo‘li adolatli, Prezident siyosati to‘g‘ri siyosat ekanini badiiy so‘z vositasida yurakdan izhor etdilar. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Sh. Rahmon, N. Narzullaev, Azim Suyun, Habib Sa’dulla, Rauf Parfi, Yo‘ldosh Sulaymon, Sa’dulla Hakim, Anvar Obidjon, Oydin Hojjeva, Gulchehra Nurullaeva, Gulchehra Jo‘raeva, Mirpo‘lat Mirzo, To‘ra Sulaymon kabi shoirlar tomonidan hozirjavoblik bilan yozilgan she‘rlarda O‘zbekiston mustaqilligiga, xalq baxtiga qilingan suiqasd ekani ochib tashlandi.

Terrorchi-jinoyatchilar ayovsiz jazoga loyiq ekaniga shoirona misralarda kafolat berildi. Normurod Narzullaev 19 fevral kuni hozirjavoblik bilan yozgan «Xalqim, sen bilan qalbim» nomli she'rida:

Yovuz xabar til - til etdi bag'rimni,
Qanday axir izhor aylay qahrimni,
Qabih kaslar bukolmagay qaddimni,
Ey, ona xalqim, sen bilan qalbim...

Yaxshidan nom, bog'bondan bog' qolajak,
Yomon odam haq jazosin olajak,
Biznikidir yorug' kunlar - Kelajak,
Ey, ona xalqim, sen bilan qalbim! - deb kuyladi.

Mustaqillik davrida inson qadri - qimmatini va uning bunyodkorlik mehnati, aql-irodasi, olijanob insoniy tuyg'ulari haqida ham anchagina she'riy asarlar yozildi. H.G'ulom, Mirmuhsin, R.Bobojon, Nazarmat, J.Jabborov, E.Oxunova, H.Sharipov, D.Fayziy singari ko'pni ko'rgan, tajribali shoirlarimiz bu mavzularni yoritish orqali mustaqilligimizni dil-dildan qullab-quvvatladilar. Mustaqillik davriga kelib qayta tiklangan va tegishli tarzda o'z qadr - qimmatini topa boshlagan milliy urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizni va ajoyib milliy an'analarimizni ixlos bilan tasvirlab, targ'ib qildilar. Taniqli shoir Hamid G'ulom «Ko'ngil gulzorida chechaklar unar...» turkum she'rlarida yangi zamon ruxini, ezgu g'oyalarni samimiyat bilan kuyladi:

Bir kuch bor, yagona kuch - dunyoga metin ustun,
Shu kuch haqida kuyla, mening oqsoqol do'stim.
Shunday kuylaki, dunyo uyg'onsin, yorishsin kun,
Biz ham bir kosa sharop ichaylik shu baxt uchun;
Bu kuch, bu baxt do'stlikdir. Nurli visol bahona,
Mangu qardoshlik uchun sipqaraylik shohona.

(«Qutlov»)

Shoirlarimiz bu davrda yozgan she'rlarida xalqimizga xos bag'rikenglik, kelajakka ishonch, hamjihatlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, do'stlik, mulohazakorlik, donishmandlik, ilmga o'chlik, mardlik, to'g'rilik va axloqiy poklik singari milliy xarakter belgilarini maftun bo'lib aks ettirdilar. Bu A. Oripov, E. Vohidov, Azim Suyun, O. Hojiev, Usmon Azim, O. Matjon, Muhammad Yusuf, N. Narzullaev, O'tkir Rahmat, Sh. Raxmon, X. Davron, J. Kamol, M. Mirzaev, M. A'zam, G. Nurullaeva, G. Jo'raeva, Sh. Salimova, X. Bobomurodova, 3. Mo'minova, Yu. Jumaev, H.Sa'dulla va boshqa shoirlarning 1990 yillardagi ijodida, ayniqsa, ochiq ko'rinadi.

Bu shoirlarnint mustaqillik davrida yaratilgan sara asarlarda inson o'z hayotini xalq, mamlakat hayotidan chetda tasavvur qilmasligi, inson-insonga qo'lidan kelganicha, beminnat yaxshilik qilishi, xalqning shodligiga ham, g'amu tashvishiga ham birdek sherik bo'lishi lozimliga, boshqacha qilib aytganda, elim deb, yurtim deb kuyib-yonib yashash, to'yda ham, azada ham ko'pchilik bilan birga bo'lish g'oyasi rang-barang shakllarda ifodalandi.

Yana bir iste'dodli shoirimiz Usmon Azim she'riyatida ham ona Vatan obrazini va O'zbekiston mustaqilligini rang-barang shakllarda ixlos bilan ko'ylash xususiyati ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning «Insonni tushunish», «Holat», «Oqibat», xususan, «Ko'zgu», «Surat parchalari», «Dars» to'plamlaridagi yangi she'rlarda inson va mamlakat hayotiga doir rang-barang tuyg'ular tug'yoni va hayotbaxsh g'oyalar zo'r hayajon bilan tasvirlab berilgan. Shuning uchun ham shoir:

O'ynoq - o'ynoq, og'ir - og'ir oqmoqda umrim,
Goh ko'z yumib, goh ufqqa botmoqda umrim.
Bor jonini sadqa aylab she'rga, qo'shiqqa,
Siz yo'qotgan sururlarni topmoqda umrim.

deb yozishga haqlidir.

Mustaqillik davrida she'riyatimizda inson mehnatini e'zozlash, turmush madaniyatini ko'tarish, tabiatni asrash, tabiat boyliklaridan tejab - tergab foydalanish, Orol dengizini halokatdan saqlab qolish mavzularida ham ko'plab

o'tkir she'rlar yozildi. Shuningdek, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning buyuk ahamiyati haqida ham xilma - xil she'rlar yaratildi. Bu turkum she'rlarga xos asosiy xususiyat shundaki, ularda (xususan, A.Oripov, E.Vohidov, Azim Suyun, Halima Xudoyberdieva, Tohir Qahhor, Abdulla Sher asarlarida,) o'zbek tilining boyliklari va o'ziga xos nozik xislatlari ixlos va muhabbat bilan yoritilgan. Tohir Qahhor:

Tilimiz bir quyoshki, u kunu tun sochar nur,

U bir gulzorki, so'nmas, rangidan yashnar umr,

U bir yerki, o'lsak ham, unda yashay olurmiz - deb yozgan edi.

Mustaqillik davrida she'riyatimizda ozodlik va fuqarolik burchi, vijdon va sadoqat, haqiqiy insoniylik va do'stlik, halol ishlab halol yashash, axloq - odob, sevgi - muhabbat, oila va nikoh singari mangu dolzarb mavzularda ham qator yorqin asarlar yaratildi. Bu ijodiy ishda Oydin Hojjeva, Halima Xudoyberdieva, E'tibor Oxunova, Tursunoy Sodiqova, Gulchehra Nurullaeva, Gulchexra Jo'raeva, Zebo Mirzaeva, Zulfiya Mo'minova, Sharifa Salimova, Xosiyat Bobomurodova singari ayol yozuvchilarimiz ham faollik ko'rsatdilar. Ular xususan onalar va mehnatkash xotin-qizlar faoliyati haqida jonkuyarlik bilan yozgan she'rlarida xayotdagi ijobiy tomonlarni ham, mashaqqatli va noxush jihatlarni ham ro'y-rost aks etgirdilar.

Bu shoirlar ijodida xotin - qizlar hayoti, ruhiyati, ular ongidagi o'sish - o'zgarishlar tasviri markaziy o'rinda turadi. Bu tabiiy va qonuniy hol. Chunki xotin - qizlar qalbining nozik tomonlarini, ayollar ongi va ruhiyatida mustaqillik tufayli sodir bo'lgan o'sish - o'zgarish va yangiliklarni boshqalardan ko'ra ular (shoirlar)ning o'zlari ko'proq va chuqurroq ilg'ab oladilar. Demak, shoirlar ijodida xotin - qizlar hayoti, ayollar obrazining salmoqli o'rin egallashi asoslidir. Shunisi muhimki, shoirlarimiz mavzuni yoritishda milliy xususiyat, milliy xarakter belgilaridan o'rinli foydalandilar. Xosiyat Bobomurodova bir she'rida O'zbekiston mustaqilligini ulug'lar ekan,

Ota yurt, ona xalq erking o'zingda,

Belbog'ing belingda, burching o'zingda,

Ayoling bo' shamas beshik boshidan,
Erlaring g'ururli, ko'rking o'zingda,
deb yozsa, boshqa bir she'rida ayollarimiz fe'l - avtoridagi ajoyib xislatlarni
umumlashtirib, jonli poetik obraz yaratadi:

Er - pir, deb qo'l uzatgan ham shul,
Aybing yopgan, tuzatgan ham shul.
G'olib yo'lga kuzatgan ham shul,
Ayolingni asragil elim!

Shoiralarimiz mustaqillik saodati, fuqarolik burchi, ona yurtga mehr-sadoqat, O'zbekistonning porloq kelajagiga komil ishonch tuyg'ularini ma'naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, dinu iymonimiz, o'zbekona urf - odatlarimiz bilan uzviy bog'liq holda kuylaydilar. Shoir Halima Xudoyberdieva odatda hayot haqiqatini, tuyg'ular tug'yonini milliy tarovat asnosida (fonida) ochib beradi. Uning «Vatan», «Bular Vatan qorovullari», «Xudo degan mamlakatni» kabi she'rlarida lirik qahramonning ruhiy olami, ona Vatanga, mehnatkash xalqimizga mehr - muhabbati yaqqol namoyon bo'ladi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida janr, til va uslub jihatidan ham bir qator yangiliklar sodir bo'ldi. She'riyat tili dabdabali so'zlardan, ko'pchilikka tushunilishi qiyin bo'lgan chet el terminlaridan qutila borib, xalq jonli tiliga yanada yaqinlashdi. Shirin zabon shoira Oydin Hojjeva she'riyati bu jihatdan ham qo'pchilikka manzur:

Yuzing qizil bo'ldi saltanat ichra,
Dovrug'ing shoyon yuz mamlakat ichra,
Sen uyqung buzilmay, tinch tushlar ko'rding,
Bir o'g'ling bedorxob aziyat ichra.
Qarchig'ay qush kabi sezgir siyog'i,
Doim uzangida uning oyog'i.
Ulug' minbarlarda shoningdan so'ylab,
Yeti iqlim ichrayoq di chirog'ing!

Zulmat devlarini enggan temir tan
Fidoyi mardingni asragil, Vatan!
Ozodlik va hurlik yulduzin asli
Sen uning ismida topgansan, zotan!
(«Ozodlik yulduzi»).

Bu davrda she'riyatimizning muhim sohasi bo'lgan qo'shiq janrida ham jiddiy o'sish - o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek qo'shiqchiligi xazinasi mazmuni ham, shakli ham istiqlol g'oyalariga mos bo'ltan «Yurt ishqida yonaman», «O'zingdan qo'ymasin xalqim», «Vatan aziz», «O'zbek ayoli», «Temurzoda», «Iftixor», «Sog'inib o'yg'onar tonglar», «El omon bo'lsin» singari go'zal va dilbar qo'shiqlar bilan boyidi. Bu yangi qo'shiqlarga xos asosiy xususiyat shundaki, ularda xayoliy - romantik kechinmalar emas, balki ona Vatan, mustaqillik, taraqqiyot va taraqqiyotning asosiy omillari, xalqimiz ongi va dunyoqarashidagi buyuk o'sish - o'zgarishlar tarannum etildi.

A.Oripov, E.Vohidov, N.Narzullaev, M.Yusuf, U.Azim, H.Xudoyberdieva kabi iste'dod soxiblari o'z qo'shiqlarida ona Vatanni, ona Vatan tuyg'usining qanchalik muqaddas, qanchalik bebaho ekanini, bu tuyg'uni boshqa hech qanday tuyg'uga tenglashtirib yoki almashtirib bo'lmasligini dil-dildan kuyladilar. Shoiralarimiz «Vatanni sevish iymondandir» hikmatiga amal qilib, Vatanni g'arazgo'ylik bilan, biror shaxsiy manfaat umidida «sevish»ga qarshi chiqdilar. Vatan ona-dir. Vatanni onani sevganday sevish va ardoqlash ham farz, ham qarz degan g'oyani o'z qo'shiqlarining umumiy ruhiga singdirib yubordilar.

Darhaqiqat, A.Oripov «jamiyatning mustaqamligi uchun o'zini baxshida etmay turib, undan nimadir ta'ma qilish onaga, ovqat bersang, kiyintirsang seni «ona» deyman, bo'lmasa yo'q, deyish bilan barobar. Biz avvalo, millatning fidoyilari bo'lishimiz kerak»,¹ deb yozganda to'la haq edi. Shoir qo'shiqlarida, xususan «Men nechun sevaman O'zbekistonni» asarida ana shu poetik fikr o'z ifodasini topgan. Unda jonajon O'zbekiston obrazi, shuningdek, lirik

¹ Abdulla Oripov. Biz ummon yuzini ko'rdik. «Xalq so'zi» gazetasi, 1999 y., 22 iyul.

qahramonning ona Vatan - O'zbekistonga bo'lgan cheksiz muhabbati va buning asosiy sababi samimiyat bilan ochib berilgan. Shu bilan birga, soxta vatanparvarlar qoralangan:

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan deya yeru osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida, dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarman tuprog'ini men
O'paman: «Tuprog'ing bebaxo, Vatan».

Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku er yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,

O, Qashqar tuprog'i, qashshoq miding sen?
Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga.

Xalqim, tarix hukm seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin.

Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring - chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

Ko'rinadiki, bu qo'shiqda O'zbekiston yurtiga mehr-muhabbat tuyg'usi shu quyoshli o'lkaning egasi bo'lgan o'zbek xalqiga mehr-muhabbat tuyg'usi bilan birlashgan va o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shoir O'zbekiston, xususan uning boyliklari va beqiyos go'zalliklari haqida poetik mulohaza yuritarkan, doimo zahmatkash xalqimizni ulug'lab, unga ta'zim bajo keltiradi. Xalqimizni har narsaga mohir, har narsaga qodir bunyodkor kuch sifatida madh etadi. Buni Abdulla Oripovning, ayniqsa, mustaqillik davridagi ijodi to'liq tasdiqlaydi.

Mustakillik davrida o'zbek she'riyatida sevgi-muhabbat, axloq-odob va diniy mavzularda ham zamonaviy qo'shiqlar yaratildi. Ularda istiqlol sharofati bilan yuzi yorug', imoni but, qaddi baland bo'lgan mehnat axlining kundalik amaliy faoliyati, quvonchu tashvishlari, ruhiyati, orzu istaklari o'z ifodasini topdi. Ana shunga ko'ra yangi qo'shiq-she'rlarimizni o'qib (tinglab) xalqimizning kayfiyatini, hayotdagi o'sish-o'zgarishlarga va umuman mustaqilligimizga munosabatini yaqqol sezish-bilish mumkin. Normurod Narzullaevning 1999 yilda respublika tanlovida birinchi o'rinni olgan «Sog'inib uyg'onar tonglar» qo'shig'i yoki Muhammad Yusufning milliy tarovat bilan bezangan zamonaviy qo'shiqlari bunga yaxshi misol bo'ladi.

Ha, to'g'ri, qo'shiqchilik sohasida yutuqlar, bilan birga, ayrim nuqsonlar ham uchraydi. Eng jiddiy nuqson shundaki, hayotni sayoz, yuzaki-engil elpi aks etgiruvchi qo'shiqlar hali ham barham topgani yo'q. Shu sababli ijodkorlarimiz ham, ijrochilarimiz ham eng avvalo qo'shiq matniga, uning shaklan va mazmunan mukammal, go'zal bo'lishiga e'tiborni yanada kuchaytirishlari kerak.

Mustaqillik davrida xilma xil she'rlar, qo'shiqlar bilan birga, liro-epik asarlar (ballada, doston va hatto she'riy romanlar) ham yozildi. Lirika singari liro-epik she'riyat ham yangi zamon ruhini to'g'ri aks ettirdi. Dostonchilikda haqqoniylik, oshkoralik, avvallari aytish mumkin bo'lmagan gaplarni dangal

yozish, hayotiy muammolarni ko'tarish, odamlar ongiga bor haqiqatni chuqur singdirish odati kuchaydi.

Azim Suyunning «O'zbekiston», Xurshid Davronning «Vatan haqida etti rivoyat», Sulton Akbariyning «Qatag'on», Omon Matchonning «Nega men?», Ikrom Otamurodning «Uzoqlashayotgan og'riq», Habib Sadullaning «Jarohat», Jonibek Subhonning «Bezovta ruh», Abdumajid Azimning «Sarbon» kabi dostonlarida yaqin o'tmish voq ealari, shaxsga sig'inish davri fojialari tasvirlangan, shuningdek, Vatan xoinlarining O'zbekiston mustaqilligiga qarshi qilgan yovuz tajavvuzlari fosh etilgan.

Sulton Akbariyning «Qatag'on» dostonida sovet davridagi qatag'on fojiasi xalqona sodda va teran misralarda ochib tashlangan:

Yetti kecha tergov, siquv surunka,
Narkomning egnida qonli shirinka.
Kig'arov yurgizib tirnoq shilarlar,
O'likni turg'izib qistoq qilarlar,
Shu qadar farang bo'b ketganmi jazo!
Shu qadar qiyinmi sho'roda qazo!
Chalajon cho'zilsa, suvga pisharlar,
Qo'y yutgan ajdoha yanglig' shisharlar.
Axir, u chibin-ku, emas karkidon,
Otib yuborsaydi tezroq arkidan.

Sulton Akbariy dostonida hayot haqiqatini, xususan, 1937 yilgi qatag'on voq ealarini tasvirlashda xalq og'zaki ijodiga xos uslubdan va jonli xalq tili boyliklaridan moxirona foydalangan. Natijada «Qatag'on» dostoni g'oyat ta'sirli va xalq chil bo'lib chiqqan.

Mustaqillik davri dostonchiligida Habib Sa'dullaning hozirjavoblik bilan yozilgan «Jarohat» asarining o'z o'zni va ahamiyati bor.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad bu asar haqida «Shoir Habib Sa'dullaning dard bilan yozilgan dostonini 16 fevralda Toshkentda yuz bergan yovuzlikka uning la'nat va nafrati deb bildim... Habibning g'azab va alam bilan

bitgan ushbu dostoni o'quvchini loqayd qoldirmasligiga ishonaman. Dostondagi chaqnab turgan satrlar mening, sizning, barchamizning qonimizni qaynatib turgan alam, bo'g'zimizdan otilib chiqayotgan bir olovli vulqondir» - deb haq gapni yozgan edi.¹

Dostonning mundarajasi boy va serjilo. «Bag'ishlov» va «Xotima»dan tashqari asar «Toshkent», «Suiqasd», «Darbadarlar», «Ajdodlar hukmi», «Uchrashuv», «Yo'l boshchi», «O'zbekiston» nomli yetti lavhadan iborat.

Lavhalardan har biri o'zicha mustaqil va tugal. Shu bilan birga, ular ichki mantiq va uslub jihatidan bir biri bilan o'zaro mustahkam bog'liq. Darhaqiqat, «Jaroxat» dostonining o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda boshdan-oyoq davom etuvchi yaxlit voqea va tugal syujet yo'q. Lekin dostonda ayrim-ayrim lavhalar tasviriga singdirilgan yaxlit g'oya, yaxlit fikr, yagona uslub - ichki mantiqiy bog'lanish mavjud. Ana shu bog'lanish «Jarohat»ni bir butun asar o'tkir doston holiga keltirgan.

Doston dabdabali va jimjimali, yaltiroq misralardan emas, balki yurakdan otilib chiqqan yorqinli va quyma misralardan tashkil toptan. «Bag'ishlov» qismidagi misralardanoq bu fazilatni ochiq ko'rish mumkin:

Vatan, senga otilgan o'q
Mening ko'ksim teshib o'tgay,
Sening jismingdagi og'riq
Mening jonimni og'ritgay.
Agar yosh oqsa chashmingdan
Oqur ikki ko'zimdan qon.
Oh ursang gar mening
Ohim sharori dunyoni tutgay.
Boqib ko'rku jamolingga
Yashirmas zavqini olam,
Qay ul shaytonki vos-vosda

O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1999 yil, 2 aprel.

Go‘zal bag‘ringga o‘q otgay?
Shu o‘qdan necha kundir kim
Qarorimni yo‘q otmishman,
Sening zahming bitar ammo,
Mening zahmim qachon bitgay ?
Senga qasd aylagan dajjol
Mening xalqimga qasd etmish,
Butun xalqga g‘anim kori
Laindan ham o‘tib ketgay,
Lainlardan o‘zing asra,
Xudoyim, yurtu xalqimni,
Dilim og‘riqlari chak-chak
To‘kilmish dardli dostonga,
Degayman, qalbi ko‘rlarni.

Shunday qilib, o‘zbek she‘riyati mustaqillik davrida poklanish, yangilanish, bor haqiqatni cho‘chimasdan baralla aks ettirish yo‘lidan borib, o‘z mavzu doirasini zamonaviy dolzarb mavzular hisobiga kengaytira bordi. Shuningdek, o‘z g‘oyaviy mundarijasini yangi-yangi poetik mazmun va hikmatli fikrlar bilan boyitdi. Natijada hayotiylik va zamonaviylik ustun xususiyat sifatida tobora barqaror bo‘ldi.

Yuqorida mustaqillik davri she‘riyatida poetik fikrning yangilanishi, o‘zbek poeziyasida istiqlool g‘oyalarining aks etishidagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatishga harakat qilindi.

Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish lozimki, istiqlool adabiyoti tushunchasi keng va tor ma’noga ega. Keng ma’noda u kamida yuz yillik davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi:

«Bizda istiqlool adabiyoti kamida bir asrlik tarixga ega. Men jadid adabiyotini ham, hatto o‘ttizinchi yillardan boshlab adabiyotimizga kirib kelgan Mirtemir, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Oybeklarni ham qay bir darajada mustaqillik

uchun xizmat qilgan, deb bilaman. Og‘ir qatag‘on zamonlari bo‘lishiga qaramasdan, ular o‘zbekning qadr-qimmati, g‘ururi haqida asarlar yoza oladi. Oltmishinchi yillardan boshlab tom ma’noda mustaqillik adabiyoti yaratildi, deyish mumkin. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, keyinchalik Shavkat Rahmon kabi shoirlar mustaqillik adabiyotiga katta hissa qo‘shdilar. Umuman, men mustaqillik adabiyotini keng ma’noda tushunaman. Tom ma’noda badiyatga ega, yuksak san’at asari darajasiga ko‘tarilgan, chuqur insoniy va milliy mazmundagi obrazlarni yaratgan, umumbashariy g‘oyalarni kuylagan asarlarni istiqlol adabiyoti jumlasiga qo‘shaman. Ta’kidlash kerakki, to‘qsoninchi yillardan keyingi adabiyot to‘g‘ri yo‘ldan ketayapti qadamlayotir. Lekin, adabiyot shunaqa soha ekanki, bunda bitta zo‘r iste’dodga o‘nta o‘rtamiyona iste’dod to‘g‘ri kelarkan. Ulkan cho‘qqilarning yon-atrofida past cho‘qqilar bo‘lgani, shular birlashib bitta silsilani tashkil etgani kabi, adabiyotla ham daho ijodkorlar atrofida o‘nlab undan pastroq iste’dodlar bo‘lishi tabiiy. Meni bir narsa quvontiradiki, Abdulla Qahhor ta’kidlaganidek, adabiyotimizning ertangi kunidan umid katta. Zero, bugungi ijodkorlar har qanday cheklanish va to‘siqlardan xoli. Faqat yuksak san’at asarlarigina bugungi adabiyotimizning bosh mezoni bo‘la oladiki, bu ham mustaqillik sharofatidandir».

Darhaqiqat, Mustaqillik adabiyoti qanday adabiyot? Bu o‘sha o‘zimizning adabiyot, faqat farqi shundaki, istiqlol davri adabiyotida sifat yanada kuchliroq bo‘lmog‘i, badiiyat yanada yuksak bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish zarurki, keyingi paytda “mustaqillik” degan muqaddas so‘zni xudabehuda ishlataverish urfga aylanib ketdi. Juda ko‘p she‘rlar yozildi, qo‘shiqlar qilindi. Ma’nosi esa sayoz. Masalan, o‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, faylasuflarimiz haqida yozilgan asar mustaqillikka, bugungi o‘zbekning e’tiqodini, vatanparvarligini mustahkamlashga xizmat qilmaydimi. Qiladi, albatta. Yoki Amir Temur haqida, uning zamonasi, mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida chiroyli bir asar bo‘lsa, ko‘pchilik uni qiziq ish bilan o‘qiydi.

Mana etmish yil sho‘rolar hukumati ostida yashadik. Ochin-to‘g‘in, manqurtlarcha. Lekin, shunday sharoitda ham xalq yashadi, yaratdi, qurdi, ixtirolar

qilib, boy, betakror madaniyat yaratdi. Mana shular aks ettirilgan badiiy asarlar ham, shubhasiz, mustaqallikka, bizga, avlodlarga bir saboq tariqasida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bugungi kunimizda bo'layotgan o'zgarishlar haqida ham yozish kerak. "Diniy ekstremistlar" deymiz, ular qaerdan kelib chiqdi. Ularning jamiyat uchun zarari nimada. Mana shularni chuqur yoritadigan asar bugungi jamiyatimiz talabidir. Boringki, katta asar bo'lmasin, kichkina qissa bo'lsin. Lekin, yoshlar ichida u qo'lma - qo'l bo'lsin.

Bundan u'n-u'n besh yil oldin mustaqillik adabiyoti bormi - yo'qmi deyishardi. Albatta, 1991 yildan keyin yaratilgan asarlar ma'nosida bor. Lekin, ularga qo'yayotigan yuksak talablar nuqtai nazaridan kelib chiqib, 50-100 yil yashab qoladigan asarlarimiz bormi, degan savol qo'yilishi ta'biydir. Bunday asarlar endi yaratilyapti.

Tor ma'noda eski istiqlool adabiyoti deganda asosan 1991 yildan boshlab vujudga kelgan adabiyot anglashiladi. Mazkur ishda ham, asosan, ana shu davrning mahsuli bo'lgan poeziya janriga oid asarlar tahlil doirasiga kiritilgan. Bu yangi adabiyotning o'ziga xos va mos yutuqlari bor va ular tobora ko'paymoqda.

1.2. Badiiy tasvir tamoyillarining teranlashishi.

Mustaqillik davri adabiyotidagi eng katta yutuq shuki, bu davrda o'zbek shoirlari o'tmish va hozirgi hayotni aks ettirishda avvalgi cheklanish-chegaralanish iskanjalaridan butunlay qutildilar. O'tmish hayotni ham, hozirgi hayotni ham butun borlig'i va murakkabligi bilan tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Chin hayot-xalq hayoti bilan aloqani yanada mustahkamlab, haq so'zni dangal yoza boshladilar.

Mustaqillikning o'tgan dastlabki yillari ko'p shoirlarimiz uchun astoydil izlanish va qizg'in ijod qilish davri bo'ldi. Buning dastlabki natijalari quvonchlidir. Zotan, o'tgan qisqa davrda so'z san'atining hamma janr va turlarida muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Adabiyot yangi mavzular, yangi g'oya va obrazlar, yangicha talqin va tasvirlar bilan boyidi.

¹ Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent, «Sharq» nashriyoti, 2004, 248-249-betlar.

Shuningdek, adabiyotimiz istiqlolning dastlabki o'n yilligida mustaqillikning bevosita tub amaliy masalalarini kengaytirish yo'lidan yuordi. Mustaqillik davridagi mamlakat va xalq hayotining asosiy mavzulari, muhim va dolzarb zamonaviy masalalarga bag'ishlangan yirik badiiy asarlar yarata boshlardi. Zero, bu masala yechilsa, adabiyotimizning hayot bilan aloqasi yanada yaxshilangan va mustahkamlangan, uning ma'rifiy-ma'naviy, tarbiyaviy-estetik ahamiyati yanada oshishini yaxshi anglab etgan edi. Demak, zamonaviylik doimo adabiyotning qalbi va asosiy mavzu bo'lishi shart, degan qoidaga to'liq amal qilish kerak. Shunday ekan, mustaqillik davrida hayot qahramonlarini adabiyot qahramonlariga aylantirish masalasiga diqqat-e'tibor kuchaydi. Chunonchi, mustaqillik tufayli hayotda vujudga kelgan yangi qahramonlar, xususan, ozod respublika xalq xo'jaligining turli jabhalarida, O'zbekiston mustaqilligining mustahkamlash yo'lida fidokorlik namunalarini ko'rsatayotgan ishbilarmon-tadbirkorlar obrazi adabiyotimizda paydo bo'la boshladi.

Xullas, mustaqillik davridagi o'zbek adabiyoti uzoq va boy tarixga ega bo'lgan so'z sa'natimizning yangi, sermazmun va porloq sahifasini tashkil qiladi. Shu bilan birga, u adabiyot taraqqiyotining alohida bir bosqichini hosil etadi.

Ushbu jihatlar har bir davrning aniq va asosli mazmuni bilan belgilanadi. Badiiy ong dunyoqarashlarning milliy timsolli obrazlilikning aynan shu tarixan konkret mazmuni va ahamiyatiga ko'ra bugungi istiqlol mafkurasi asoslarini mustahkamlash xususida so'zlash mumkin. Xususan, o'tgan asrning so'ngi davr she'riyati qaysi yetakchi xususiyatlariga ko'ra avvalgi o'n yilliklardan farq qiladi, ajralib turadi? Va yana qaysi fazilatlari badiiy-estetik tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoiyillarini belgilab berayotir?

Tabiiyki, shoirlarning ijtimoiy nuqtai nazari, individual tafakkur tabiati va ijodiy yo'sini, badiiy umumlashma-xulosalar mohiyatiga ko'ra hamisha farqlanib kelgan. Uning munjarijasi tarixiy shart-sharoitlar mazmuni bilan to'yinib, hamisha davr ruhini ifodalagan. Ushbu yo'nalishga mansub asarlar mazmuniga ko'ra shaxs

fojeasi, shaxsning muhit iskanjasini yorib chiqishga qaratilgan isyoni ana shu jarayonda ruh erkinligiga erishish kabi tarmoq shaxobchalariga bo‘linadi.

Shoir faqat she‘r yozib ko‘nglini bo‘shatadigan, oq qog‘ozni qora qiladigan oddiy bir ojiz emas. U millatning ma‘naviy muallimi. «Do‘stlaring kimligini aytsang, sening kimligingni aytib beraman», degan maqol bor. Shunga monand, shoir-yozuvchilaru ziyoli - munavvarlarning ongi - saviyasi, dunyoqarashi jamiyatning ma‘naviy - intellektual darajasini, millatning tafakkur salohiyatini belgilab beradi.

Albatta, zamon sadolari, hayotdagi va adabiyotdagi o‘zgarishlar shoirlarning ijtimoiy yo‘nalishdagi she‘rlarigagina emas, intim ruhdagi, muhabbat mavzuidagi she‘rlarining to‘qimasiga ham ta’sir qiladi. Biroq bu yo‘sindagi she‘rlarda hayot nafasi bo‘rtib, yaqqolroq ko‘rinsa, boshqa mavzularda sal boshqacharoq namoyon bo‘ladi. Zamon va hayot nafasi haqida o‘ylaganda, ko‘z oldimizga birinchi navbatda Usmon Azimning «Insonni tushunish» deb atalgan kitobi keladi. Chunki to‘plamdagi juda ko‘plab she‘rlar usha zamon kishilari xarakter-xislatlari, o‘y-tuyg‘ularini, davrdagi va adabiyotdagi qator xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan.

Usmon Azimning lirik qahramoni E.Vohidov va A.Oripov kabi shoirlarning qahramonlari kabi asrning ulkan va kichik muammolarini, yutuq va fojialarini ancha teran his etadi va o‘zigagina xos ifoda vositalari orqali tasvirlaydi. O‘z ruhiga XX asr 90 yillar kishisining bir qator xususiyatlarini jo qilgan bu qahramon zamonning dolzarb masalasi bo‘lmish ishon va uning jamiyatdagi o‘rni, hayot va kurash haqida o‘ylarkan, asrni bir qo‘lida nafosat bo‘lgan gul, ikkinchi qo‘lida esa qirg‘inlar timsoli bo‘lgan qurol ushlab turgan kishiga o‘xshatadi. To‘g‘ri, lirik qahramonni shu xil zid timsollar orqali ta’riflagan she‘rlar boshqa shoirlarimizda ham uchrab turadi.

Jumladan, Asqad Muxtorin: »Bir oyog‘i oyda bo‘lgani bilan, bir oyog‘i go‘dak ustida» kabi bir qarashda oddiy, ammo mohiyat-e’tibori bilan haqqoniy satrlarini, Jamol Kamolning «Qalbingdagi o‘tkuganji muqaddas, qo‘lingdagi o‘tdan qo‘rqaman» singari ziddiyatli tuyg‘ular ifodalangan misralarni misol qilib keltirish mumkin.

Ammo bu erda muhim farq shundaki, Usmon Azim she'rida ifoda vositalarining o'zgacharoqligi, fikr qahramonning xatti-harakatlari orqali ifodalanganligi tufayli she'rda shu davrdagi bosh xususiyat o'zgacharoq qirralari bilan aks etgan.

Usmonning har bir yaxshi she'ri u qaysi mavzuga bag'ishlanganidan qat'iy nazar o'quvchi qalbini jizillatadi. Bu esa she'rda davr kishisining orzu o'ylari, his-tuyg'ulari zamonaviy shaklda, yangicha tashbehlarda aks etganligini bildiruvchi eng zarur belgilardan biridir.

Shoirning «Doktor rostini aytdi...» deb boshlanadigan she'ri, garchi mavzu va fikr yo'nalishi jihatidan yuqoridagi she'rlaridan ajralib tursa - da, unda ham zamon kishilarining keskin va o'jar xayollari aks etgan. Bu she'rda sayyoramizdagi har bir inson hayotiga bevosita bog'lanadigan gaplar yo'q. Ammo, unda qalamga olingan masalalar bivosita bo'lsa-da, kishilarimiz hayotiga, kelajakka daxldor.

Bu o'rinda shoir meshchan tabiatlar va sof vijdonli odamlarni bir - biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlaydi. Ba'zi birovlar ayshini surib, par yostiqlarni quchoqlab, jamiyatdan, odamlardan yulib yashayotgani, sofdil odamlar esa dunyoning dardlarini tuzatish, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashayotgani ancha durust ko'rsatilgan. Albatta, Usmon bu masalani birinchi bo'lib ko'tarib chiqqani yo'q. Haq va nohaqlik, kurash va hiyonatni qarama-qarshi qo'yib tasvirlash azal-abaddan mavjud. Biroq Usmon Azim haqlik va nohaqlik kurashini o'ziga xos manzara va holatlar fonida ifodalaydi, natijada o'sha haqgo'ylar va nohaqlar, kurashchilar va meshchanlarning kimligi ham ma'lum bo'ladi.

Asardagi personajlardan biri-doktor asosiy lirik personajga: «Chekishni tashlashingiz kerak, charchash sizga ziyon, maslahatni olmasangiz, oxiri yomon bo'ladi», deydi. Biroq xuddi o'sha kuni unga askarlarni mashqqa olib borish kerakligini aytishadi. «Bormasa bo'lmaydi, usiz nima ham qila olishardi», podpolkovnik xayolidan shu so'zlar o'tib, beixtiyor cheka boshlaydi. So'ng esa ish joyidagi bahslar, janjallar...Shoir so'zida masalani konketretroq qo'yib, fikrlarini yana keskinroq usulda aytadi.

U fikrini shunchaki ifodalab qo‘ya qolmaydi, balki bu bilan ba‘zilar kurashga imkon bo‘lmagan paytlarda ham, bemor yurak bilan bo‘lsa-da, nohaqlikka qarshi jang olib borayotganini juda qattiq ta’kidlab, jamiyatdan yulib, aysh-ishrat qiluvchilarga qarshi kurashish lozimligini uqtiradi. She’r davomida shoir so‘zlari yanada shiddatli, yanada keskin bo‘la boshlaydi. Endi uning yuqoridagi «Podpolkovnik, damingizni oling» kabi so‘zlari shunchaki bir poetik ifoda usuli ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Ayrim munaqqidlar bu uslub shu xil «o‘tish» davrlarigagina xos, deb o‘ylaydilar va bu xil minbar she’rlarni negadir yoqtirmaganlar. Holbuki, shoir uchun hayot, odamlar qalbi hamisha g‘alayonlarga to‘la bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Zero haqlik va nohaqlikning kurashi, hoh ochiq, hoh yashirin yo‘sinda bo‘lsin, davom etadi.

Usmon Azim shu xil jo‘shqin ohangda gapirish bilan bir-biriga zid fikr-tuyg‘ularni mutanosiblashtirib ifodalaydi. Uning orom olish haqidagi fikri ham, kurashish xususidagi chaqiriqnamo so‘zlari ham o‘ziga xos poetik mantiq asosida dallilanadi. Lirik qahramon podpolkovnikning yuragi kasalligini bilgani uchun unga doktor kabi achinadi. Biroq, hayotning yanada go‘zal va dorilomon bo‘lishi uchun kurashishi lozimligini o‘ylaganda, shaxsiy baxtsizlik, kasallik esdan chiqib ketadi. Shuning uchun ham uni «bemor yurakni changallab» olg‘a yurishga undaydi. Kurashchilarning shaxsiy baxtsizligini o‘ylashga, shuni sabab qilib ko‘rsatib oldingi saflarni tark etishga haqi yo‘q, yaxshi hayot, go‘zal kelajak uchun barcha odamlar bir tan-bir jon bo‘lib kurashmoqlari lozim - bular she’rning poetik zaminidan kelib chiqadigan xulosalar.

Albatta, Usmon Azimning ba’zi misrlalarda mavhumlik va g‘alizlik ham uchraydi. Jumladan, uning bir she’rida «Oq toledan yonar ko‘zlar mastona» deyiladiki, oq toledan yongan ko‘z haqidagi poetik o‘y ancha mavhum.

Azim Suyun, Shavkat Rahmonlarning izlanishlari, ular ilk to‘plamlarida erishgan yutuqlar va yo‘l qo‘ygan kamchiliklar Usmon Azim she’rlaridagina qisman o‘xshab ketadi. Bu ikki shoir ham hayotning dolzarb masalalari haqida, haq va haqsizlik, yaxshilik va yomonlik kabi azaliy muammolar xususida qalam

suradilar. Ularning ayrim she'rlarida ham Usmonda kuzatganimiz chaqiriq, murojaat ruhi bor. Ammo bu ruhlarning poetik fikrlash tarziga moslashganligi uchun ham o'zgacha poetik holat yuzaga keladi. Jumladan, Shavkat Rahmon bir qator she'rlarida Usmonga o'xshab meshchan tabiat odamlarga qarshi jang e'lon qiladi, kurashchilarni himoya qiladi, ezgulikni ulug'laydi.

Uning «Ko'zingizni oching», «Venetsiya» kabi she'rlarida bu xususiyat seziladi. Uning «Har qadami o'limga qarshi» bo'lgan lirik qahramon fikr-tuyg'ularida kurashchanlik ruhi kuchli. Ammo bu o'y-tuyg'ular o'zining nafasi, ruhi bilan Usmon Azim she'rlaridagidan ko'ra o'zgacharoq jaranglaydi. Dunyoning taqdiri bilan qiziqib, dardlari bilan oshno bo'lib yashovchi bu qahramon meshchanlarni shunday qoralaydi:

Faqat kuzatasan beg'am, bexatar,
Faqat sen yashashing kerak o'zgacha...
Qaydadir insonlar osilib yotar,
Faqat sen yashashing kerak yuzgacha...

Ko'ramizki, shoir ancha sokin va bosiq yo'sinda gapiradi. Ta'bir joiz bo'lsa, u meshchanlarga qarata tishini tishiga qo'yib so'zlayotganga o'xshaydi.

Shavkatning inson ma'naviy dunyosi, qalbining boyligi uchun kurash masalasi birinchi o'ringa chiqarib tasvirlangan «Venetsiya» she'rida ham shu hil bosiq uslub ustunlik qiladi. Bu she'rda qachonlardir cho'kib ketgan shahar «Venetsiya» tilidan XX asrga qarata shunday deyiladi:

Cho'kib borayotir muqaddas hislar...
Muqaddas orzular, go'zal tuyg'ular,
Xoloskor bo'lolmas Bobil, Tarteslar,
Senday buyuk dastga muhtojdir ular...

«Venetsiya»da A.Oripovning «Qo'riqxon», Omon Matjonning «Tabiatning «qizil kitobiga» she'rlariga g'oyaviy ohangdoshlik bor. Bu she'rlarning hammasi ham ezgu, muqaddas hislarning yo'qolib ketishiga qarshi kurash ruhi bilan to'la. Faqat bu ruh turli ifoda vositalari asosida, turli poetik usulda ochib beriladi.

Albatta, hamma she'rlarning har jihatdan etuk bo'lishi, hammasi ulug' g'oyalarga yo'g'rilishi qiyin. Biroq shunga intilish har bir she'rdan, u qaysi mavzuga bag'ishlanganidan qat'iy nazar, hayot va zamon nafasi sezilib turishi shart. Shundagina asarning qadri baland bo'ladi, o'z ijodkoriga keng yo'l ochib beradi, yorqin kelajak va'da qiladi.

Shuningdek, haqiqiy poeziya - hayotning tub-tubiga boqa bilishdir. Zero, shoir qancha iste'dodli bo'lsa, uning ko'zi hayot ildizini shuncha aniq ko'radi, mohiyatini bexato anglab etadi:

Hayotning saslari go'shimda ko'p faryod shaklinda,
Bu insonlar ki qardoshlar va lekin yot shaklinda.
Bu tuproq qonli avloqdir, bashar sayyod shaklinda,
Adovat doimo bordir, muhabbat ot shaklinda,
Bu dunyo eskidandir sahna bedod shaklinda...¹

Shunday qilib, 90-yillar o'zbek she'riyatida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmon singari shoirlar she'riyat mazmunini boyitishga, sehrini oshirishga imkon qadar xizmat qilib kelmoqda.

She'riyat-nafosat, go'zallik. She'riyat – shoir qalbining ko'zgusi. She'riyat - hayot mohiyatini tiniq ko'rmoq, shoirona idroq etmoq, aniq-tiniq ifodalamoq. Hayotga qancha teran nazar tashlansa, umr-lahza, inson-sayd, Alloh mangu, munosabatlar - yolg'on ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunga qaramay, poeziya hayot go'zalligini, yashamoq baxtini aks ettirishni oliy maqsad deb biladi. She'riyat - mangu tashnalik.

Hayotga, haqiqatga, ezgulikka, sevgiga, yorug'likka tashnalik. She'riyat–shoir qalbi murakkabliklari, ziddiyatlari, intilishlari, intiqliklari ifodasi. She'riyat-shoirlar aro mangu ijodiy bahs maydoni. She'riyat azaldan go'zallik dunyosidagi hamkorlik sifatida diqqatni jalb etgan.

Anglashiladiki, zamonaviy she'riyat XX asrning 1990 yillaridan boshlab yangi miqyos, yangi kengliklarga ko'tarildi. Badiiy tasvir tamoyillarining

1 Muhammad Hodiy. Hayot sadolari. «Jahon adabiyoti», 3-son, 1997.

teranlashishi, mavzu doirasi va talqinda rang-baranglikka intilishning samarasi ularoq ijtimoiy muhokama, hayot va insonning ruhiy faolligining tezlashishi, shaxsiy-intim kayfiyat ustuvorligi mustaqillik yillarida bir qadar barqarorlashdi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik sharoitida ko'p qatlamli she'riyat takomili ko'zga tashlandi.

Atoqli shoirlarimiz Zulfiya, Shukrullo, A.Oripov, E.Vohidov, Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmon, R.Parfilar ijodida ko'zatilgan uslubiy-shakliy izlanishlardan ma'naviy oziq olgan she'riyat jahon so'z sa'nati tajribalari bilan uyg'unlashib, nozik namunaviy-umumlashma she'riyatni shakllantirmoqda. Bu she'riyatda so'zni o'zgacha shakllarda ifoda etish, yuksak aql-idroqni fikriy tiniqlik hamda hissiy aniqlik sari yo'naltirish, hayotda inson borlig'ini poetik tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tarish, ruhiyat iqlimlarini falsafiy tahlil qilishga moyillik, shakliy ixchamlilik asosiy vositalardan biri sifatida bo'rtib ko'rinadi.

Keyingi yillar lirikasi inson xarakterlari olamiga va, uning ichki dunyosiga, ruhiy-ma'naviy intilishlariga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Muayyan hayotiy inson xarakterlari orqali juda katta fikrlarni o'rta tashlash tamoyili kuchaymoqda. Mazkur davr she'riyati falsafiy-badiiy tahlil va tasvir tamoyillari teranlashgan ijtimoiy lirika sifatida namoyon bo'ladi. Hayotda ijtimoiy munosabatlar kuchaygan, o'zgarayotgan hamda yangilayotgan sharoitda, tabiiyki, ma'naviy talab-ehtiyojlar ham ortib boradi. Shu nuqtai nazardan, voqelikni uning xarakterli tamoyillari bilan birgalikda chuqur falsafiy o'zlashtirish va idroq etish, badiiy haqqoniy in'iqosini topishga intilish asosiy o'ringa ko'tarildi. Hatto, zamonaviy she'riyatda ko'ngil izhori va ruh falsafasini uyg'unlashtirish asosiga qurilgan. R.Parfi ijodining dastlabki bosqichida ham ijtimoiy ohanglar ustuvorlik qiladi. Harqalay, yangi o'zbek she'riyatidagi evrilishlar ko'lami davr psixologik omillari bilan bog'liq. Ijodiy malakaning takomillashishi, g'oyaviy mundarijaning kengayishi, hayot mazmun-mohiyatini yangicha mezonlar asosida baholash tamoyillariga moyillikning ortib borishi, aynan, XX asrning ikkinchi yarmidan ibtido oladi.

Umuman, o'zbek she'riyatida hayotni, voqelikni va insonni har taraflama tushunishga, insonning olamga munosabatini tabiiy holida gavdalandirishga ehtiyoj kuchaydi. Odamzodning ijtimoiy-falsafiy va ruhiy-psixologik qirralari ma'naviy tadqiqotlar markaziga ko'chirildi. Poetik ijodning imkoniyatlari turfa nazariy qarashlar, hayotda kuzatilayotgan o'zgarishlar natijasi o'laroq takomillashib bormoqda. Badiiy salmoqdorlik, keng epik ko'lam va ijodiy salohiyat o'zbek she'riyatining tadrijiy takomilini belgilab beradigan omillar hisoblanadi. Muhimi, o'zbek poeziyasi voqelikni badiiy anglashning yangi yo'llaridan yurishga harakat qilayotgan edi. 1990 yillar she'riyatidagi bu izlanishlar keyinroq, 2000 yillardan boshlab chinakam badiiyatga daxldor lirika namunalarining yaratilishiga zamin bo'ldi.

II - BOB

2000 YILLAR SHE'RIYATIDA LIRIK OBRAZ TADRIJI VA TAKOMILI

2.1. Shavkat Rahmonning lirikada poetik obraz yaratishdagi o'ziga xosligi.

1990 yillar she'riy tafakkuridagi chin yangilanish 2000 yillar shoirlari ijodida sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu davr she'riyati qandaydir buyurtmadan butunlay yuz o'girib, shaxsning fikri va hislarini rasmiy tushunchalar changalidan chiqarishga, fikr mustaqilligi hamda ko'ngil erkini oliy haqiqat hisoblab yashashga undadi.

Istiqlol she'riyati nihoyatda erkinligi bilan e'tiborni tortadi. Ayniqsa, obraz yaratishdagi shakliy erkinlik mazmuniy erkinlik bilan uyg'unlashib, yuqori saviyadagi she'riy durdonalarning dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Milliy she'riyatimiz o'z zaminidan, o'z ildizlaridan uzilmagan holda adabiyotdagi ilg'or tajribalardan bahramand bo'la boshladi.

Shavkat Rahmon lirikasi betakror obrazlar silsilasidir. Shoir har bir fasl, tog', daraxt, soy, oy, yulduz, bulut, giyoh, xazon, bog', gul, qush, kapalak, dengiz, o'rmon, bo'ri, tun, ko'z, quyosh, yer kabi obrazlar zamiriga yangi-yangi ma'nolarni jo etadi, favqulodda fikrlar aytib, kutilmagan hayotiy xulosalar chiqaradi. O'z fikriga o'quvchini ergashtirib, uning hissiy, aqliy quvvatiga ta'sir etib, she'rning umumiy pafosiga uni ham sherik qiladi. Shu bois aytish mumkinki, shoirning har bir yaratgan yangi obrazi - yangi bir betakror hilqat!

Olim B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek: «Obraz mohiyatiga ko'ra harakatdagi voqelikdan iborat», - deydi. Bu voqelik ijodkor ongida qayta idrok etilib, dunyoqarash va idealga uyg'unlashtirilib, so'ng obraz sifatida yaraladi. Har bir obrazda hayotning bir parchasi, qandaydir voqelik, ruhiy holat botin bo'ladi. Endi mazkur obrazning qanchalik tabiiy, go'zal, jozibali, hayotiy, favqulodda yaralishi ijodkor shaxsning ruhiy olami, hissiy va aqliy qudrati, darajasi va estetik idealiga bog'liq. Ana shularning hammasiga g'ayb bir payg'om – ilhom ham qo'shilsa, to'g'rirog'i asos bo'lsa, asar barkamol, badiiy mukammal chiqadi.”¹

¹ I. G'aniev, N. Afoqova, A. G'anieva. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademnashr, 2013. 40-bet.

Shavkat Rahmon lirikasida shu qadar original obrazlar mavjudki, har bir qo‘llangan obraz, ikkinchi yo uchinchi she’rda o‘zga ohang (ha, ohangi ham o‘zgaradi!) va ma’no ramz falsafani akslantiradi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, uning she’rlarida obrazlarning shakllanishida detallarning o‘rni katta. Shoir avvaliga biror detalni qo‘llab, unga ma’lum vazifa yuklagan bo‘lsa, she’rdan-she’rga uning ma’no ko‘lami kengayib, obrazga aylanadi, ya’ni obrazning obraz bo‘lib shakllanishida uning detallik bosqichi ahamiyatlidir. Ana shunday detaldan o‘sib chiqqan obrazlardan biri **oydir**.

Oy gulladi. Osmon toqiga

Yulduzlarni kimdir qoqadi.

O‘zanlarda sokin to‘lg‘anib

Tag‘in quyuq kunduz oqadi.

Oy haqida mumtoz she’riyatlarimizdan boshlab shu kungacha yuzlab o‘xshatishlar bor. Lekin bu yerda oyning gullashi – atrofida yulduzlarning guldek ko‘rinishi nihoyatda go‘zal topilgan. Ko‘z o‘ngingizda darhol olma yoki shaftoli gulini yulduzday sochilgani namoyon bo‘ladi.

Shavkat Rahmon lirikasi uchun istioraviy o‘xshatishlardan keyin obraz yaratish an’ana-uslubga aylangan. Har qanday obraz hayotiyli, joziba-ta’sirini ta’minlash uchun aniq bir makon va zamon bo‘lishi kerak. Shavkat Rahmon lirikasida makon va zamon masalasi hamisha tayin, ishonchli, faol. Chunki har bir obrazda shoirning voqelik, hodisaga shaxsiy munosabati bor. Unda shoir dunyoqarashi, ideali, estetik olami mujassamlashgan.

Shoir lirikasini sinchiklab kuzatgan shaxs eng ko‘p uchraydigan an’anaviy, ayni paytda, individual obrazlarni tez payqaydi. Bular eng xarakterli, betakror, faqat Shavkat Rahmon lirikasida o‘zgacha ma’no, qirra, ramz, falsafa aks ettiradigan obrazlar: it (20); qush(19); xoin (16); bulbul (15); tog‘ (14); qul (10); daraxt (10); vaqt (9); ot (8).

Ana shu faol obrazlarni shoir har bir she’rda yangi bir ma’noda, yangi bir fikr, g‘oya, tasvir, hodisani ta’sirchan anglatish uchun o‘z o‘rnida, mantiqiy izchillikda, hissiy va aqliy quyuq mushohada bilan istefoda etadi.

Endi **qushlar** obraziga e'tibor qarating.

*Qushchalar,
sayroqi qushchalar
Qafasda bo'g'ilib sayrashar,
Betoqat tipirlab simlarga
o'ralgan olamga qarashar...*

Bu misralar ham daf'atan erksevar shoir Abdulhamid Cho'lponning 1924 yili yozilgan «Qushning hadigi» she'rini esga soladi. Unda «ulug' zehniyat» bilan qurilgan qafasga o'zini urib, chirqillayotgan qush tasvirlangan. Bu qushning yodiy hayoli dalalarda, o'rmonlarda erkinlikda. Shu bois u shiplarga yalinadi, tomni teshib chiqmoqchi bo'ladi, o'zini devorlarga uradi. Ammo atrof karaxt, hissiz devorlarning sezgisi yo'q, tuyg'usi yo'q, tovush bermas. Tegra – butun ruhsiz gavda: «Nechun mundoq bo'lding?»-demas...

Qushlar – erkinlik, hurriyat, ozodlik ramzi. Ana shu sayroqi qushcha – erkin kuylaguvchi, ozodlikni sog'ingan lirik qahramon qafasda, bu ham etmagandek, bo'g'ilib sayrar! Uning ovozi – yurt, shoir, elining ozodlik ramzi. Bu erda qushcha huddi Cho'lpon she'riyatidagi singari istioraviy obrazga aylantirilgan. U butun bir xalq, millat, lirik qahramon-shoir qalbi, erki, o'zligi. Ammo Shavkat Rahmon Cho'lponni shunchaki boshqacha shaklda takrorlamasdan, qush obrazini rivojlantiradi. «Qushning hadigi»da qush o'z holiga achchiq-achchiq bo'zlasa, o'zining hurlik chog'larini sog'insa, Shavkat Rahmonda qush bitta emas, ular ko'pchilik. Ikkinchi tarafdin esa:

*Qushchalar,
ozodruh qushchalar
olamdan ko'zlarini uzmaydi,
chirqirab o'zlarin holimas,
o'zgalar holiga bo'zlaydi.*

Ha, bu qushchalar o'z holiga emas, o'zgalar holiga bo'zlaydi. Ular ozodruh, ha, ular jismonan qafasda bo'lsa ham, ruhan ozod. Go'yo inson qamoqda bo'lgani, qo'li kishan, zabun, xor bo'lgani bilan, ongda, fikran ozod bo'lganidek, chunki

uning fikrini kishanlash imkonsiz-da! Qafasning o'zi-ku cheksiz bir zulm, shu zulm simlari ichidan munavvar olamni ko'rib, bu erkin, ozod olam bilan o'zini qiyoslash azobichi?! Lirik qahramonning o'zi qafasda, mahkum, lekin yana o'z holiga emas, o'zgalar - millatdosh, jabr, zulm, zo'ravonlik ko'rsatayotgan zamondoshlari uchun bo'zlaydi. Bu lirik qahramon mustabid zamonlarda ham boshi ustida turgan qilichdan aslo qo'rqmay, zulmga qarshi so'z bilan keskin, murosasiz kurashgan o'tyurak, qaysarruh shoir Shavkat Rahmon edi."

Shoir she'rlarida bulbul obrazi ham alohida ko'zga tashlanadi.

Yana yaproq yozgan daraxtga,
atirgulga do'narsan nuqul.
Kechalari chap ko'kragingda
qafasini sindirar bulbul.

Bulbul - bezovta qalb. Shunday kunlar keladiki, go'yo yaproq yozgan daraxtdek baxtga to'lasan, go'yo «atirgulga do'nasan» – go'zallik ramziga aylanasan. Ho'sh, bu qanday kun?! She'rning biror satrida bunga aniq ishora yo'q. Lekin Shavkat Rahmon ijodining estetik ideali, dunyoqarash va maqsadidan mazkur kunning nomini topish mumkin. Bu – Ozodlik, erk kuni, Turkiston va turkiylar hurlikka erishgan kun.

«Ijodkor ko'pincha o'z estetik idealini, badiiy g'oyasini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko'rsatadigan betakror obrazlari bo'ladi. Deylik, «Binafsha senmisan, binafsha senmi» deganda Cho'lpon esga keladi. "Na'matak" Oybekdan darak beradi. "O'rik gullaganda»– Hamid Olimjon ta'biri, "Majnuntol tagiga o'tqazing meni" – Mirtemirning shoh satri. Bunday obrazlar gohida shoir dunyosining belgilovchi xususiyatidek taassurot qoldiradi. Shavkat Rahmon she'rlarida «tog'» obrazi ko'p uchraydi. Shoirning «Uyg'oq tog'lar» degan to'plami, «Yosh tog'lar», «Sulaymon tog'i etagidagi o'ylarim» nomli she'rlari bor. Uning she'rlarida «tog'larning musaffo qori» ko'zga tashlanadi, uning she'rlarida tog'lar so'zlaydi; «tog'lar – abadiy cho'kkan nortuyalar»ga

o'xshatiladi, shoir tog'larning guldirosini eshitadi va hatto, tog'larning «ko'zini topadi».¹

Shavkat Rahmon she'riyatida esa tabiatning har bir bo'lagi, har bir she'rda biri ikkinchisini takrorlamay, uchinchisi to'rtinchisidag o'zga-o'zga, yangi ma'no, ramz va fikr tashiydi, jonlantiriladi. Birgina **TOG'** obrazining o'zini rang-barang ma'nolarda qo'llaydi.

Tog' - mag'rurlik, yomonliklarni to'sguvchi, sabrli, g'am-alamni ko'taradigan, oh, ux chekayotgan shaxs, u - bahodir, u - tarix, qanoat, u - go'zallik, u - qalqon, u - yovdan himoya, u – hasratdan ulg'aygan qoya va h.k.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –

vodiylarga yugurdi shamol,

Yuzlarini yashirdi hilol.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –

mog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.

Tog'ning xo'rsinig'i - shamol. Mana shuning o'ziyoq kutilmagan obraz. Tog' nega og'ir xo'rsinadi? Bunda ham ma'no bor. Chunki she'r, aslida, bahor haqida. Qishdan, qor-u ayozlardan zerikkan tog' og'ir xo'rsinib yuboradi. Bu xo'rsiniq esa shamolga aylanib, vodiylarga yugurib, butun borliqni uyg'otib yuboradi. Hilol ham endigina boshlangan yangi faslning atributi, u yuzini bulutlar bilan yashiradi. Bularning hammasi esa, shubhasiz, bahor manzaralari. Tozargan havolar, bulutlarning shaffof hijobi ortidan maftunkor boqib turgan hilol, vodiylarda o'ynoqi bolakayday yugurib yurgan mayin sabo - bularninig bari esa yurakni uyg'otib yuboradi. Xo'rsinsang, bahorni boshlab kelgan tog'day xo'rsingin ekan!

Shavkat Rahmon ijodidagi bu estetik hodisaning o'z ruhiy-psixologik asosi mavjud. Nazarimda, shoir esini taniganidanoq toqqa nazari tushgan, tog' bilan yurgan, tog' bilan nafas olgan. Shu ruhiy asos uning she'rlariga ko'chib, badiiy libos kiygan va jonli tog'lar obrazi tug'ilgan. Og'ir kasallikka chalingan kunlarida ham u “tog'larga ko'chib ketish”ni istab yotadi.

Shavkat Rahmonni xotirlab. Karimov B. Shoirning o'tkir so'zi. –T.: Sharq, 2012. 129-bet.

«Zilol suvlar jildirab oqayotgan, musaffo havosi rohat bag‘ishlaydigan tog‘larga o‘tov tikib yashashni orzu qiladi».¹

Shu o‘rinda bir rivoyatga murojaat etamiz. Hakimlar aytishadi: «Mustaqim (to‘g‘ri yo‘ldan yurgan) kishi toqqa o‘xshaydi. Tog‘da to‘rt alomat bor: u issiqda erimaydi, sovuqda muzlamaydi, shamolda qimirlamaydi, sel oqizib ketmaydi.»

Bu rivoyatni, tog‘ va inson qiyosini istagancha sharhlash mumkin. Deylik, mustaqil odam maqtovlardan taltayib ketmaydi. O‘zini biladi. Nojoiz lafzlarga sukut bilan javob beradi. Nafsiga qul bo‘lib, uning shamollarida uchmaydi...»²

Shavkat Rahmon she‘riyatida armon obrazi ham bordirki, u bir qarashda ko‘zga tashlanmaydi, ba‘zan o‘z nomi bilan atalmaydi. Shoir she‘rlarining mutolaasi davomida uning aynan «Armon» deb nomlangan she‘rini (1979 yilda yozilgan 1 ta she‘ridan tashqari) deyarli topmadik. Demak, gap uning nomida emas, hammasi mohiyatda.

Shoir hech qachon “mana mening armonim”, deb aytmaydi, bunday yo‘sinda aytganida ham she‘rxon baribir unga ishonmasligi mumkin edi. Shu bois u so‘z ortiga asl so‘zni yashirdi.

*Bunda har bir chechak,
har bir giyohning
osmonni to‘sguday haybati bordir.
Bu diyor naqadar ulug‘ bo‘lsa-da,
ulkan odamlarga naqadar zordir.*

Mana shu satrlarning o‘ziyoq shoir elkasini ezib turgan dardning, millatidan chiqqan katta, jasoratli odamlarni ko‘rishdek armonining yaqqol ifodasidir. Qolaversa, xalqining mash‘um urushni ko‘rgani va uning surati asrlar davomida bobolar ruhini bezovta qilajagini og‘riq bilan yozadi “Urush suvrati” nomli she‘rida:

Qonga botgan dunyoni ko‘rib,

¹ Бу ҳақда қаранг: Шавкат Раҳмон. Сайланма. Р. Қўчқор ва Н. Боқий қаламига мансуб “Гул қаҳри” номли сўнгсўз.

² Шавкат Раҳмонни хотирлаб. Каримов Б. Шоирнинг ўткир сўзи. –Т.: Шарқ, 2012. 129-бет.

azoblarga berolmasdan dosh.

Ulkan, qizil quyosh har kuni

olib ketar uzoqlarga bosh.

Quyosh -nur, rizq, iqbol timsoli. Uning bu yerlardan bosh olib ketishi, yurtining ma'lum davrlar ichida ma'naviy nurdan ayrilishi shoirning armoni emasmi? Bizning bu ma'noni teranroq anglab olishimizga shoir qo'llagan botayotgan quyosh detali katta yordam beradi.

Zamon har doim ham shoirning ko'nglidagi gaplarini ochiq aytishga imkon bermadi. Shu bois chechaklar-u giyohlardan, toshlarning gullashi-yu, tog'larning uyg'oqligidan shoir siz bilan biz o'ylagandan ko'ra ko'proq ma'no istadi. Ularni o'z fikrlarini ifodalash vastasiga - timsol-u ramzlarga, majoziy ifodalarga aylantirdi:

Tosh ham gullarmi deb

minglab kaltabin

gurzisin do'latib yiqilgan paytda,

Mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,

bir kuni gullaydi bu tosh albatta.”¹

Shoir bu so'zni ishonch bilan aytdi. Ammo o'sha buyuk toshlarning gullaganini, ya'ni, buyuk xalqni erkka yuz tutib, ajdodlar nomi oqlanganini ko'rolmagani, uning armoni edi.

Shu kabi ramziy ifodalarga boy mushohadalarni uning «Armon» nomli she'rida ham uchratamiz.

Shavkat Rahmon umrining so'nggi yillarini og'ir xastalikda o'tkazdi. «Mening har bir kunim **o'limga** qarshi» deya ayta olgan shoir chindan ham shunday yashadi. O'lim bilan kurashayotgan kezlari ham o'tli she'rlar bitdi. Uning so'nggi she'rlaridan tug'ilib o'sgan tuprog'ini – O'shni sog'inib ketganini, munglig' ko'zlarini Sulton O'shining yo'llariga tikkancha yumganini anglash qiyin emas.

¹ Mullaxo'jaeva R. "Shavkat Rahmon: shoirlik-qismat." e-adabiyot.uz sayti.

Abadiyat oralab

O'shga qachon etamiz?..

Shoir ona tuprog'iga yetib borolmadi. Bu esa bir go'dakqalb shoirning juda katta ARMONi bo'lib qoldi. Agar O'sh detali satrlar ichida mana men deb turmaganida biz shoirning asl armoni tug'ilgan yurtiga bo'lgan sog'inch hissi ekanligini anglolmagan bo'larmidik.

Shavkat Rahmon neki orzu qilmasin bariga, tom ma'noda, erishdi. Millatimiz hurfikr, Vatanimiz ozod, Istiqlol shabodalari erkka tashna xalqimiz qatori qalam ahlining ham ko'ksini yayratib yubordi. Ishonchimiz shuki, Xudoning hovlisidan turib, bugungi qutlug' kunlarni kuzatayotgan shoirning zulfiqor ruhi xotirjam kezib yuribdi.

Shavkat Rahmon she'riyatida armon obrazi va uni talqin etgan badiiy detallar hali ko'p tahlil va tadqiq qilinadi, yangi xulosalar, fikrlar beriladi.

Shoir she'riyatini tadqiq etayotgan odam undagi vaqt falsafasiga be'tibor o'tolmaydi. Shoir vaqtga, hatto uning bolalariga ham, tom ma'noda, sig'inadi. Har daqiqa, lahza, soniya ham uning uchun chikora emas. Shoirning iqrori shuki, vaqt hech qachon insonga qul bo'lmaydi, u sizdan, bizdan tashqari chiqib ketish, ya'ni bizni tashlab ketish qudratiga ega. Bunda vaqtни o'z vujudiga qamay olganlarga yutadi:

*Vaqt senga qul bo'lmas asla,
undan kutma muruvvat, ta'ma.
Sig'in unga, yolvorgin, avra,
bir amallab vujudga qama.
Qul bo'lolmas senga, baribir,
vaqt hamisha hushyor, jangari –
Yorib tashlar jismingni nogoh,
chiqib ketar sendan tashqari.*

Shoir vaqt obrazini talqin qilar ekan, uning har bir urinishida **daqiqa** detali yuzaga chiqadi. U o'sha daqiqani ham mahkam tutib olgancha yashashni, yashaganda ham dunyoning barcha qora narsalarini o'ldirib yashashni istaydi:

*Yashamog'im zarur har daqiqani
g'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib.
Dunyodagi barcha qora narsani
yorug' lahzalarda o'ldirib.*

Umrining bir misqolini ham avaylab yashashga urinayotgan shoir ne bo'ldiki, butun boshli asrdan (shunday katta vaqt-a!) bezidi, uning tugashini istadi. Nega u aynan yigirmanchi asrdan kechishga tayyor? Ha, bu shunchaki yuz yil emas. XX asr shoir va u kabilarning qalbini iztirobga to'ldirdi. Bu davrda o'z xalqining g'aflatidan, erksizligidan, ma'nan, ruhan xo'rlanishidan, azaliy qadriyatlarining toptalishidan ezilgan shoirning ko'zlari o'zligini unutayotgan xalqni endi ko'rishga toqati yo'q, bu asrning bir soniyasini ham yashashni istamaydi. Chunki qullikning bir soniyasi ham qullikdir:

*Yigirmanchi asr!
Tashlab ket meni,
boqiy go'zallikni bilmas bu olam.
Ming yilni yelkamda ko'tardim, endi
malol kelayotir soniyalar ham...*

«Soatga cho'zilgan har daqiqani» sog'inib-sog'inib yashayotgan, «ulkan soat o'rtasida» madorsiz turgan shoirning dushmanlari endi huddi «to'xtagan soatlar misoli» juda olisda, keraksiz. Unutilgan, qadsiz buyumday turgani uning diliga bir oz bo'lsa-da taskin beradi. Bizningcha, shoirning xiyonat, orsizlik, g'aflat, qullik singari dushmanlarini aynan to'xtagan soatga o'xshatishida ham bir hikmat bor.

*Yashaging keladi...
Faqat umrni
qumsoat singari to'nkarib bo'lmas.*

Agar **qumsoat** va uni qaytarib to'nkarib bo'lmasligi haqiqatni aytmaganida, shoirning vaqt va umr borasida xulosasi bunchalik rost chiqmagan bo'lardi. Bu esa detalning kuchi.

Daryoga aylandim

*O'ychan daryoga,
Ruhimda qadimgi osoyishtalik.
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni
Ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari*

Fikrning daryoga o'xshashi oqim, dolg'alarni (xotira, tarix, munosabat, ishq, nafrat, muhabbat va h.k) qa'riga olib, «berkitib» yurishi – o'ta nafis topilma. Insonning «daryoga aylanishi» ham uning qadimdan mavjud bezovtaligi, shiddati, qudrati, sokinligi, bu sokinlik ichidagi yashirin imkoniyatiga ishora.

*O'ylayman yashamoq mohiyatini,
qattiq nigohlarim osmon xatida.
Vujudim sezmayman,
lazzat olaman
har fikr – ruhimning harakatidan.
Biroq o'jar kunduz
tovlanar ekan,
yashil zamzamali yiroq tog'lardan.
Irmoqlar - jodugar pari qizlari
boshlab kelar toshloq qirg'oqlarimga,*

Shoirning o'zi, fikri - **daryo**. U shu sokin oqim, hayot qa'rida o'z umri, kurashlarining mohiyatini sezadi, ruhan yengil tortadi – «vujudim sezmayman», uning qalbi, ruhi, orzulari bezovta. «O'jar kunduz» – har soat, soniyada holati o'zgarib turadigan kunning daryoda jilolanishi, akslanishining musavvirona tasviri Mazkur o'jar kunduz shu qadar zo'r, rango-rang tovlanadiki, bunga sabab «yashil zamzamali yiroq tog'lardan» uning harakat - «fikr» olishi. Bu yerda tog'ning va suvning ajoyib, bir-biriga uyg'un zamzamani tashkil etishi – tabiiy go'zalligi favqulodda go'zal ilg'angan.

Yuqorida tahlili berilgan obrazlardan tashqari Shavkat Rahmon she'riyatida dunyo, irmoq, bo'ri kabi obrazlar ham borki, ular alohida tadqiq etish va o'rganishni talab etadi. Umuman olganda, Shavkat Rahmon she'riyatini to'liq anglashga undagi

obrazlar silsilasi va ularning yuzaga kelishiga dastlabki zina bo'lgan detallarni o'rganish orqali erishish mumkin.

2.2. Farida Afro'z she'riyatining badiiy xususiyatlari.

Farida Qo'ziboy qizi Bo'tayeva. Afro'z - adabiy taxallusi. Ustozi Rauf Parfi maslahati bilan diliga o'tirgan, ma'qul ko'rgan, qabul qilgan adash ismi. Aslida, Afro'z- kuydiruvchi, yorituvchi, shu'lalantiruvchi ma'nolarini anglatadi. Farida Afro'z- tengsiz, yakkayu yagona kuydiruvchi, degan ma'noni bildiradi.

Farida Afro'z 1956 yil 10 avgustda Qo'qonda tug'ilgan. Otasi - Qo'ziboy Bo'taboy o'g'li; onasi –Tojiniso Boymirza qizi. Qo'qondagi 10-o'rta maktabda ta'lim olgan. Beshinchi sinfda o'qib yurgan kezlari, o'n bir yoshidan boshlab she'rlar yoza boshlagan. Ilk saboqni maktabda adabiyot muallimasi Oliyaxon opadan olgan.

1972 yili o'rta maktabni tamomlab, Qo'qon Davlat pedagogika institutining tarix fakultetida ta'lim olgan. Keyinchalik oliy ta'lim tahsilidan, hozirgacha Alisher Navoiy, Nodirabegim, Cho'lpon, Rauf Parfi she'riyati maktablarida, Sharq va G'arb badiiyatidan saboqlar olib kelayotir.

1967-1968 yillardan boshlab matbuotda ko'rina boshlagan. Uning shoira bo'lib shakllanishida Qo'qon shahridagi «Nihol» adabiy to'garagi mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.

80-yillardan boshlab u gazeta va jurnallarda faol ishtirok eta boshladi. Uning 1986 yili «Qirq kokilligim», 1992 yili «Iztirob ko'ylagi», 1994 yili «Tunlar isyoni», 1999 yil «Ko'zim manim», 2001 yil «O'zimdan o'zimgacha», «Ushshoq», «Gun aydin»(Istanbul), «Ot Faridy Afruz» (Moskva), «Tasbeh» she'riy majmualar muallifi.

Uning she'riy so'zida istioralar, majozlar ichida ko'ngilning oniy kechinmalari- tebranishlar, titroqlar namoyon bo'ladi. Shoir shamolda sham ko'tarib ketayotgan kimsa, deydi Farida Afro'z. Bu shunchaki so'z o'yini emas. Yoki, shoir qismatiga aytilgan chiroyli, obrazli ta'rif emas. Bu asl shoirning peshonasiga bitilgan yozuq. Boshiga tushgan, ko'ngligi tugilgan taqdir kushoyishi.

Farida Afro‘z nafaqat iste‘dodli shoira, tadbirkor ayol, tashkilot rahbari, mohir tarjimon hamdir. U yapon, turk she‘riyatining namunalarini hamda Anna Axmatovanning asarlarini, bir qancha kinofilmlarni o‘zbekchaga tarjima qilgan.

Farida Afro‘zning «Qurbonjon Dodxoh» dostoni, «Mangu manzil» va «Nodirabegim» asarlari kitobxonlar mehrini qozongan. Shoira bugungi kunda bir qancha nasriy hikoyalar yozib, ularni nashrga tayyorlamoqda. Quyidagi satrlar shoiraning o‘ziga xos ovoz va uslubga ega ekaniga dalildir.

Hovuchimda turmas sharshara,
Hovuchimda to‘lmas sharshara,
Jilg‘a, buncha tillaring shirin.

Shaftolijon, gullaring g‘ujg‘on,
Tegib ketdi novdangga, uzr,
Pushti ko‘ylagimning yenglari.

Zamon va adabiyot munosabati murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o‘zgarib turishi bo‘lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o‘zi yaratilgan zamonga qaraganda ko‘proq yashashga intilishidir.

Zamonda turib zamonni ko‘rish qiyin, uning biror jihatini baholash esa yanada mushkul. Shuning uchun zamonaviy o‘zbek adabiyoti, unga xos belgilar haqida gapirish g‘oyat ma’suliyatlidir.

Endi ma’lum bo‘lyaptiki, olamdagi asosiy masala ong va materiya munosabati emas, Alloh va Odam munosabati ekan, taraqqiyotning omili sinfiy kurashligi uydirma, insonning maymundan tarqalgani tuhmat, insoniyatning besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani bosib o‘tishi haqidagi qarash xomhayol ekan. Albatta, jamiyat tafakkuridagi bu yangilasnishlar badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topmoqda. Olamni, odamni, uning tuyg‘ularini turlicha ifodalaydigan asarlar paydo bo‘lmoqda. Bir xil asosdagi ruxsat etilgan xilma xillikdan chin badiiy turfalik yo‘liga o‘tila boshlandi.

Falsafiy asos o'zgarishi bilan adabiyotimizning insonni tasvirlash tamoyillarida ham jiddiy yangilanishlar ro'y berdi. Badiiy adabiyotga ma'naviyatni shakllantirish, millat a'zolarining qalbini tarkib toptirish vositasi deb qarab, tuyg'ulari nozik, hayoloti baland, ruhiy nigohi o'tkir kitobxon tarbiyalashni orzu qilar ekanmiz, adabiyotimizning tashviqiy adabiyotlikdan qutulib borayotganidan quvonmog'imiz kerak. Darhaqiqat, bugungi adabiyot odamlarga yo'l ko'rsatishni gardaniga olmaydi, o'quvchiga aql o'rgatmaydi, muallimlik qilmaydi. U tasvirning ingichkaligi, ifodalarning kutilmaganligi bilan o'quvchida munosabat uyg'otadi.

Shuni aytish kerakki, istiqlol adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zamirida. Bu adabiyotning asl namunalari osongina o'qilib ketilaveradigan asarlar sirasiga kirmaydi. Bu asarlar o'quvchidan muayyan hozirlikni, intellektual-ruhiy zo'riqishni talab etadi. Odamga, olamga boshqacharoq nigoh tashlashni taqozo qiladi. Bu adabiyotda:

Men g'olibman, buyuk lashkarman,

Bosib oldim sevgi yurtini

Yoki

Oллоhim. Men o'ldim... men senga yetdim

misralaridagi singari favquloddalik, jaydari tasavvuru mantiqiy qoliplarni buzishni uchratish mumkin.

She'riyatning bosh o'rganish obyekti inson, deymiz. Bu-hech kim inkor etmaydigan sohir haqiqat. Endilikda mushtdekkina yurak she'riyatimiz ko'z tikkan buhronlar maydoni bo'lib qoldi. Yurakda kechayotgan azoblarning ranglarini, nimtahir tabassum to'lqinlarini, qiynoqlarning ohanglarini, o'y-xayollar shevasini, bir so'z bilan aytganda, ko'ngil mamlakati she'riyatimizning qon tomiri bo'lib qoldi. Ya'ni, fikr va tuyg'u omuhtaligidan tug'ilgan tafakkur manzaralarini tadqiq etish, kechinmalarning fikrchan suratlarini chizish yetakchi tamoyillardan biridir.

Ikkinchidan, ramzlar, timsollar, metaforalar asosida mushohada yuritish va badiiy umumlashmalarda falsafiy teranlikka intilish hozirgi bosqich she'riy madaniyatining galdagi ustivor xususiyatlaridan xisoblanadi. Badiiy

umumlashtirilgan ramzli, tahayulli obrazlilik ushbu yo‘nalishdagi asarlarning bosh fazilatiga aylandi.

Uchinchidan, hikmatli she‘riyat mazmuni o‘ziga munosib shakllarni taqozo etdi. Xokku (uchlik), fard, tanka, sonet, tuyuq singari lirika janrlari, ikkilik, to‘rtlik, oltilik, sakkizlik, o‘nlik, o‘n ikkilik, she‘riy turkum kabi poetik shakllar falsafiy mazmunni ifodalashda asosiy vosita bo‘lib qoldi. Tahayullar asosida yuzaga kelgan poetik obrazlar (nur, daraxt, oftob, tog‘, tun, bog‘, suv, tuproq, olov va h.k.) umumbashariy mazmun ila to‘yinganligi boisidan ham ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ularni A. Oripov, R. Parfi, O. Matjon, Sh. Rahmon, M. Yusuf, X. Davron, U. Azim, F. Afro‘z kashf etganligi uchungina emas, eng muhimi, XX asr adog‘i –XXI asr boshlaridagi millat va jamiyat ongi- dunyoqarashini, tafakkur madaniyatini ifodalashga qaratilgan mayli bilan ongimizda yangi sahifalar ochadi.

Shuni ta’kidlash joizki, hayot, jamiyat, ruhoniya timsollari voqelikning yangi qatlamlarini, ma’naviyatning yangi qirralarni badiiy idrok etishga qaratilgan. Ular davrning yetakchi, peshqadam fikrlari holatida zohir bo‘layotir. Eng muhimi, ular milliy va umumbashariy badiiy an’analarga tayangan holda o‘zligini namoyon etayotir. XXI asr kishilarining ham ruhoni ehtiyojlariga javob bera oluvchi, o‘z umrzoqligini ta’minlovchi omillar ham ana shunda.

Falsafiy-timsolli obrazlilik badiiy tafakkurning o‘ziga xos mustaqil ko‘rinishi. U kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Timsollarga, ramzlarga asoslangan badiiy idrok va ifoda madaniyatidagi falsafiy umumlashmalar o‘zining hikmatli, dono, ibratli ma’nodorligiga ko‘ra insoniyat tarixini bezab keladi. Ushbu xususiyat Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» dostonlaridan tortib, Alisher Navoiy asarlarigacha, Oybekning “Mahmud Torobiy”, Zulfiyaning «Xotiram siniqlari» poemalaridan e’tiboran, A. Oripovning “Sohibqiron” she‘riy dramasining mag‘zini tashkil etadi. Ana shu ming yillik teran tafakkur madaniyatining tabiatini, bir-biridan farqli jihatlarini ko‘rsatish eng muhim vazifalarimizdandir.

Ushbu jihatlar har bir davrning aniq va asosli mazmuni bilan belgilanadi. Badiiy ong dunyoqarashlarning milliy o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Falsafiy–timsolli obrazlilikning aynan ana shu tarixan konkret mazmuni va ahamiyatiga ko‘ra bugungi istiqloq mafkurasi asoslarini mustahkamlash xususida so‘zlash mumkin. Xususan, bugungi falsafiy she‘riyat qaysi yetakchi xususiyatlariga ko‘ra avvalgi o‘n yilliklardan farq qiladi, ajralib turadi? Va yana qaysi fazilatlar badiiy-estetik tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoyillarini belgilab berayotir?

Avvalo, jamiyatlar noqisligi, odamlar tabiati va ma‘naviyatlar nomukammalligi bugungi falsafiy she‘riyatimizni ham o‘ylantirib kelmoqda. Nur bilan zulmat, ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, go‘zallik bilan badbinlik, hayot bilan o‘lim, jannat bilan do‘zax- barchasi inson uchun. Har ikki dunyo shevalari odamni komillik maqomiga yetkazish uchun safarbar. Va lekin, har bir davr ijtimoiy-falsafiy tafakkuri fojeiy mazmunga, fojeiy ohangga yo‘g‘rilgan. Negaki, inson mukammallikka intilgani sari turfa tizimlar, jamiyatlar uning yo‘liga turli xil g‘ovlar qo‘yadi. Jamiyatni va o‘zini baxtli qilaman, deya bani Odam yonib, kuyib yashamoqda. Ana shu xil ma‘naviy ehtiyoj bugungi falsafiy she‘riyatimizning asosiy mundarijasini belgilab bermoqda.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatiga ijodiy ta‘sir alomatlari, milliy badiiy an‘analar zaminida yaratilayotgan yangi poetik izlanishlarning ildizlarini aniqlashga harakat qilmoqdamiz. Mustaqillik sharoitida ma‘naviy- ma‘rifiy hayot katta o‘zgarishlarga uchradi. O‘zbek she‘riyatida 80-yillargacha qaror topgan an‘analar bu davrga kelib barcha tomonidan bir xilda qabul qilinmaydigan, rad etiladigan yoki tahrir etiladigan bo‘ldi. Shakl va mazmunda g‘ayri-an‘anaviy tajribalar qilindi. Masalan, Farida Afro‘z o‘z she‘rlarini deyarli alliteratsiya va so‘zlarning ma‘nodoshlik xususiyatidan foydalanish asosiga quradi. Shoira she‘riyatida poeziya tili oldinlari uchramaydigan sheva leksikasi va og‘zaki nutq unsurlari bilan boyidi. Shoira tovushlarni orttirish, cho‘zish, juftlash yoki so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib tashlash orqali she‘riy ohang hosil qilishga erishadi. Ayrim she‘rlarida kayfiyatning shaklini chizishga bo‘lgan ishtiyoq kuchlilik qilsa, ba‘zilarida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilishi seziladi. Bu kabi badiiy izlanishlar, nafaqat zamonaviy

she'riy shakllarda, balki mumtoz nazmning an'anaviy janrlarida ham amalga oshirildi. Masalan:

Boshimda do'ppi, belimda belbog',

Yoningga qaytaman-o.

Qulog'ingga bir gapim bor.

Oydinda aytaman-o.

Oydin kecha, oppoq kecha

Kulguching yonadi.

Kipriklaring oy nuridek

Ko'ksimga botadi.

Farida Afro'z she'riyatida ramzlar tili bilan so'ylash biror so'z yoki so'z birikmasini ko'chma ma'noda qo'llash, aniq predmetga shartli belgi yuklashdan ko'ra, tagdor ramziylik imkoniyatlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor beriladi. Shoiralar olam va odam munosabatini aks ettirish, ruhiyatning obyektiv borliqqa munosabatini ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlash jarayonida milliy va badiiy an'analar imkoniyatidan keng foydalanadi. Bu hol ichki zarurat sabab yuzaga kelgan. She'r so'z, fikr va tuyg'u hosilasi sifatida o'z milliy ohangi, o'lchovi va badiiy unsurlari bilan tug'iladi. Milliy badiiy an'analardan chekinmay turib, shakl va ritmga erkin yondashgan she'rlar silsilasi paydo bo'ldi.

Farida Afro'z she'riyatida ijtimoiy, siyosiy, falsafiy vazifalar yuklatilgan asarlar kam uchraydi. Holbuki, «70-80- yillarning eng sara she'riy namunalari ko'p vazifani bajaruvchi, ko'p funksiyali she'rlar bo'lgan».¹ Bunday she'rlarda mantiqiy funksiya birlamchi ahamiyat kasb etgani uchun ham ular badiiy ifoda, bayon tarzi, mavzu jihatdan bir xillashib qolgan.

Ko'pfunksiyalik majburiyatidan xoli bo'lgan Farida Afro'z she'riyati an'analar ta'siridan chetda qolmadi. Ayni vaqtda, bu she'riyatda mumtoz poeziyada ko'p qo'llanilgan timsol va tamsillarga o'ziga xos yondashuv yetakchilik qiladi.

Farida Afro'z she'rlarining aksariyatida ijodkor qalbi qirralari, ruhning

¹ Murtazo Qarshiboy. O'nglanmagan taqdir talqini.-Toshkent: "Kamalak", 1995, 68-bet.

g'ayrioddiy jilvalari kutilmagan shakllarda qalqib chiqqan bo'lsa-da, ammo goh Asqad Muxtor, ba'zan Abdulla Oripov yoki Shavkat Rahmon, Usmon Azimlarning an'anaviy badiiy kashfiyotlari ta'siridan chetga chiqqan olmagan ijod namunalari ham uchraydi.

*Javobimiz bering endi, yor,
Biz ketamiz ko'ngil shahriga.
Jur'at shaydir, shijoat tayyor,
Qololmaymiz xudo qahriga.*

Garchi ruhiy holat, undagi kechinma mutloqo farq qilsa-da, Farida Afro'zning bu misralari Abdulla Oripovning "Sevgi o'limi" she'rini eslatadi. She'riyatda yangi va hech kim kutmagan tashbehlar qo'llash bilan birgalikda, ruh manzarasini musavvirona bera olish badiiy izlanish samarasi sifatida baland qadrlanadi. Sayyor tashbehlarning ko'chib yurishi zamonaviy she'riyat vakillarinigina emas, mumtoz adabiyot namoyandalari ijodida ham kuzatiladi. Muhammad Yusuf qalamiga mansub, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlari» qahramonlari Otabek, Kumush, Zaynablar tilidan yozgan bir turkum she'rlari

Farida Afro'zning "Ushshoq" to'plamidagi quyidagi she'rda takrorlanadi:

*Kumush, seni tushundim bugun,
Kumush, senga naqadar og'ir!
Zaynab, seni tushundim bugun,
Zaynab, senga naqadar og'ir!*

*Xo'rlaganda taqdir beomon,
Bir kun yig'lab, bir kun kuldingiz.
Otabekning xayoli bilan
Bir kun muzlab bir kun to'ldingiz.*

*Kumush, holim sendan yomonroq,
Zahar tutib Zaynabim kelmas.
Oson o'lmoq, telbalik, biroq,*

Men sevgan yor Otabek emas.

Muhammad Yusufda:

*Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.*

Marg'ilonlik bir dildor

Tortib oldi begimni.

Kulgu ketmay ko'zimdan

Yog'ar bo'ldi ko'zyoshim.

Ko'z- ko'z qilib baxtini

Yoqar bo'ldi kundoshim.

(«Zaynab qo'shig'i»)¹

Sen Shirinu men ham Farhod emasman,

Sen achchig'u men ham novvot emasman,

Zaynab, Zaynab, menga aytma zoringni,

Sen dilxunu men ham dilshod emasman...

Boshga neki tushsa ko'kdan atomish,

Biz bir qafas aro giryon bir juft qush.

Bir go'shada sen xomushsan, men xomush-

Sen vayronu men ham obod emasman.

(« Otabek qo'shig'i»)²

Turli she'rlarda bir xil tashbih qo'llash yoki bir- biridan mutloqo bexabar tarzda bir xil asarlar yaratish – ro'y berishi mumkin bo'lgan ijodiy hodisa. Ijodkorlardagi kayfiyat va holat yaqinligining bir-biriga o'xshash tarzda moddiylashishi ijod amaliyotida uchrab turadi Bir vaqtlar E.Vohidov va A.Oripovlar ijodida qat'iy amal qilingan izosillabizm - teng hijolilikka Farida Afro'zning unchalik rioya etmaganligi.

1 Muhammad Yusuf. Saylanma. T.: "Sharq"-2004, 144-bet.

2 Muhammad Yusuf. Saylanma. T.: "Sharq"-204, 180-bet.

kuzatiladi. Chunki bu davrga kelib she'ning shakli bilan bog'liq izlanishlar vazn, qofiya, janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo'l tutishni talab etdi.

Farida Afro'z she'riyatni badiiy tahlil qilish jarayonida Muhammad payg'ambarimiz (SAV) ning sunnatlari, ya'ni hadislarini she'rga solish an'anasi ham avj olgani ko'rinadi. 90-yillarda A. Oripovdan boshlangan bu an'anani S.Sayyid, Sh. Qurbonlar muvaffaqiyatli davom ettirishdi. Cho'lpon: «Adabiyot ila aytganda, albatta, ta'sir qilar», - deganidek, hadislarining she'rga aylantirilishi ularning ta'sir quvvatini yanada oshirish yo'lidagi ijodiy urinishlar bo'ldi. A. Oripovning «Hikmat sadolari» da «Ona», «Bilol habash», «Ibrat» kabi she'rlar badiiy teranligi, hadislardan chiqarilgan xulosalarning chuqurligi bilan ajralib turadi. Farida Afro'zning «Tasbeh» to'plamida ham shu mavzudagi uchliklarni talayginasini uchratish mumkin.

Shohimardonni sel bosgach,

Bir masjid omon qoldi.

Masjidda hech kim yo'q edi, afsus...¹

Bu xil asarlardan payg'ambar hadislaridagi mantiqiy xulosalardan ortiq badiiy kashfiyot talab qilib bo'lmaydi. Buni Farida Afro'z yaxshi his qilgan va hadislarining mazmunini asosiy planga olib chiqqan.

Aslida, har bir so'z san'atkorining hayoti va ijodiy faoliyati davomida dildiliga yashiringan, birovlariga ko'z-ko'z etishni xushlamagan, shaxsiy sir-asroriga aylangan o'ziga xos g'oyalari bo'ladi. Ana shu o'zligini ifodalash uchun u turli xil mavzularga, shakllarga murojaat etadi. Va lekin bu narsa ko'proq «xususiy» mavzulari orqali zuhur topadi. Xo'sh, qaysi mavzu Farida Afro'z izlanishlarining turfa ma'nolarda jilolangan she'rlari uchun o'zak ildiz hisoblanadi?

Oltin olma ardoqladim bog'imda,

Alvastilar uzib ketdi bag'rimdan,

¹ Farida Afro'z. -Tasbeh. T.: "Sharq"- 2007, 140-bet.

*Ichsa ilon o‘lar edi qonimdan,
Endi sening bog‘laringda kuz yig‘lar,
Endi mening qismatimda so‘z yig‘lar.*

Zohiran, hamma narsa ayondek, shoiraning ko‘ngli satrlarda ko‘rinib turgandek tuyuladi. Aslida esa, munchalik jo‘n emas. Oltin olma, bog‘, alvastilar, ilon, yig‘layotgan kuz va so‘z- bular ohori to‘kilmagan, shoira ko‘nglidan silqigan yangi va qabariq ma‘nodor obrazlarga emas. Ularning har biri teran mazmun-mohiyatiga ko‘ra ramzlarga aylanayotir. Shoiraning dil tubiga ekilgan sirlarini anglash uchun esa, ramzlar, metaforalar bir ochqich. Sirtidan har bir so‘z bizga eskidan tanishga o‘xshaydi. Va lekin, ular yangi va chuqur yashirin ma‘nolari bilan avval ko‘rilmagan va uchratilmagan mohiyat kasb etayotir. **Ishq-muhabbat, sadoqat, xiyonat, daraxt, ona, ota, Vatan, yurakdan silqib oqqan qon, shamol, qush, yaxshi amal, yovuz niyatli ko‘zida ajinasi bor g‘anim, gullar, qor, yulduzlar, nur, suv, tuproq, tuyog‘idan o‘t chatnagan tulpor, tiyran nigoh qizaloq, oyog‘i osmonga qaragan uy, ko‘z yoshlari** - bular turfa xil ranglarda, ohanglarda, ma‘nolarda tuslansa-da, ramzli mohiyati bilan sehrli so‘zlarga aylanayotir.

Farida Afro‘z shunchaki she‘riy satrlar muallifi emas. U asl shoira, Qodir Egam diliga ezgu amallar joylagan, ko‘ngliga solgan, iqiga yuqtirgan chinakam so‘z ustasi. Deyarli barcha she‘rlaridagi so‘zlar o‘quvchining ongi-shuuridan holi olamga mansub emas. O‘zimiz har kuni kundalik muomila - suhbatlarda qo‘llaydigan so‘zlar. Va lekin, hayratlanarli tomoni shundaki, ular shoiraning g‘oyalari va tuyg‘ularini aks ettirish jarayonida sehrli salohiyat kasb etadi. Shundoqqina ko‘z oldimizda teran, serqatlam ma‘noli, sershoh tuyg‘ular musiqasini kashf etuvchi go‘zallik timsoli bo‘lib qoladi. Farida Afro‘z nazdida shoir-afsonaviy bir shaxs emas. U ham rosmana bir odam. «Ijodkor ham bir niholdayin gap,-deydi shoira.- unga quyosh- e’tirof, havo- ishq, suv- boylik, yer - Vatan, barchasi birday zarur. Ana shulardan birontasi kam bo‘lsa-chi...»¹, ijodkor

¹ Farida Afro‘z . Tasbeh. T.: “Sharq”-2007, 274-bet.

shaxsi qovjirab qurib qoladi. Shoir - aslida ko'ngillarga malham izlovchi, topuvchi, yozg'uvchi bir shaxs. Shu boisdan uni ko'ngil odami, deyishadi. Shoir nazdida, «Ko'ngil odami- misoli daraxt. Birov mevasini yesa, birov soyasidan bahra oladi. Oxir-oqibat, o'tin qilib yoqadilar, isinadilar».

Fikr - she'ning guli; tuyg'ular daraxti, kechinmalar bog'i. Shoir she'rlari- bu ko'ngil bog'larida o'z daraxtini ekishga, ko'kartirishga, ilk mevalarini yetishtirishga erishgan samarasi. U ana shu ko'ngil daraxtining nigohimizdan, hissiy idrokimizdan yashirin go'zalligiyu sir- sinoatlarini anglashga, kashf etishga intiladi. Va ushbu jarayonda butkul o'zgacha, serbarg tuyg'ulariyu fikrlari larzon ko'ngil daraxtini bunyod etadi. U kechinmalar oloviyu nuridan, suviyu tuprog'idan yuzga kelgan daraxt urug'i. Shoir uni ko'ngil kengliklariga birma-bir qadab chiqadi. Ana shu urug' har birimizning dilimizda ildiz otib ko'karadi, mevalar tugadi. Farishtali qushlarga oshyon ham bo'ladi. Polaponlarini uchirma qiladi. Temir qanotlariga parvoz bag'ishlaydi. Va shu tariqa daraxtlar So'z bo'lib ko'nglimizda yashay boshlaydi.

Ishq haqida bundanda badiiy, bundanda haroratli baytni topish mushkul. Bu kabi obrazli ifodalar Navoiyga xos uslubning samarasi. Farida Afro'z esa ishqni falsafiy ruhda talqin qilishda Navoiy an'analaridan voz kechmaydi.

Seni

Sevib,

Sevib,

Sevib,

Yashayapman sendan yiroqda.

Meni

Sevib,

Sevib,

Sevib,

Yashayapti yonginamda- firoqda.

She'rdagi lirik qahramonning ko'ngil rozlari olamjahon ifodalar bilan emas, nozik qalb nidolari bilan ifodalanadi. Yuksak muhabbat sohiblarigina o'z his-tuyg'ularini mana shunday qisqa ammo obrazli qilib so'zlaydilar.

Farida Afro'zning she'riy kashfiyotlaridan biri bu "Ushshoq" she'riy to'plamidir. Shoirada o'zining eng sof, eng inja tuyg'ularini to'kib-solgan. Bu satrlarda Oybekning samimiyati, Asqad Muhtorning falsafasi, Zulfiyaning sadoqat ufurgan ko'ngil nidosi, Rauf Parfining mavhumligi, Shavkat Rahmonning soddaligi o'z bo'y-bastini ko'rsatadi.

Ushshoq - oshiqlar demakdir. Oshiqlar borki dunyo bor.

Majnunga : «Laylidan go'zalrog'ini ko'rsataylik,» deganlarida u: «Layli mening qo'limdagi bir qadah kabidir. Men bu qadahdan sharob ichyapman. Chunki men sharobga ya'ni ishqqa oshiqman. Sizning ko'zingiz faqat qadahda, ya'ni tashqi ko'rinishda, ichidagidan xabariningiz yo'q!» – dedi.

Darhaqiqat, Sharob Ishqdir, Ishq esa Mohiyat, Qadah sinishi, bir harakat bilan chil- parchin bo'lishi mumkin. Ammo sharob- Mohiyat- Ishq mangudir. Ishq esa doimiy tashnalik, ruhning bemurosa telba ehtiyojidir. Bu tuyg'u faqat sharob ya'ni ishqdan totganlar uchungina ayon va totlidir. Bu tot, bu ta'm, bu rang, bu bo'y dunyoning dunyoligidan boshlab bor!

Siz o'shasiz,

O'sha-o'sha nigohlariningiz,

Yondirmoqni ko'zlar hamon cho'g'li qaroqlar.

Yillar o'tdi,

Lekin bir bor yo'qlamadingiz,

Xayollarim xotiramdan sizni so'roqlar.

Shukur, mana,

Ko'rishmoq ham bo'larkan nasib,

Sochingizga erta qirov qo'nibdi, ajab.

Ishq - Mohiyat dedik, bas! U bor joyda munozara, muhokama, musodara bo'lmaz! Uni bilganlar janglar qilmas, tuhmat bilmas, noishqlar, nokaslar, nodonlar sari kelmas!

Rivoyat qilishlaricha, Basra shahrining ulug' ulamolaridan, imomi a'zam Hasan Basriy otashqalb so'fiy shoira Robiya al - Adaviya kelmaganlaricha o'z ma'vizalarini boshlamas ekanlar.

Bir kuni Robiya bir oz kechikib qolibdilar. Shunda to'plangan ulamolar: «Hazrat, boshlayvermaysizmi, bir ayolni deb...?» Hasan Basriy: «Men filning yukini chumoliga yuklolmaymanda!» - degan ekanlar.

Sen menga hech do'st bo'lolmaysan

Aytchi, qachon , qanday chumoli,

Ko'tarolgan filning yukini?!

Farida Afro'z mo'jaz satrlarda shunday ilohiy ma'noni ustalik bilan qo'llay bilgan. Bu uchlikda «Mening tashvishlarim, dardlarim shunchalar ko'pki, sen do'st bo'lsang ham yonimda bo'lolmaysan. Chunki sening darding boshqa, meni dardim senga begona. Sen doimo mayda tashvishlar bilan bandsan» - degan ma'no yotadi.

Ey, voh, filning yuki filga, chumolining dardi chumoliga qolsin, nasib etsin! Illo, Ishqning yuki og'ir, dardi beshifo.

«Ishq» so'zining «chirmashmoq» degani ekanligini o'qib, uzoq yig'ladim. Chirmashmoq - ikki ruhning chirmashmog'i. Qanday asl tuyg'u bu, qanday pokiza! Ruhning chirmashmog'i oldida tanning, vujudning, mamlakat va taxtlarning va yana boshqa nimalarningdir «chirmashmog'i» qanday nochor va g'arib, tuban va mayda emasmi?!

Parvardigori olam olti kunda borliqni va shu borliq ichra o'n sakkiz ming olamni, yettinchi kuni esa Odam Atoni yaratdi. Odam jismini tufroqdan qorib, jism ichra o'z mehridan bir nuqra soldi va uni «JON» deb atadi. Ana shu o'n sakkiz ming olamni esa odam uchun tobe qildi.

Odam Ato ikki ming yil yolg'iz yurdilar va bir kuni Allohga nola qilib: «Ey, Allohim, borliq ichra olamni, olam ichra meni bor etding, o'zingga do'st qilding!

Senga behisob hamdu- sanolar bo'lsin! Men-ku sening qulingman, ammo nechun yolg'izman?! Axir tanholik faqat senga yarashur!

Ey, parvarish qiluvchi Parvardigorim, menga shunday bir juft ato etginki, men undan hech qachon mosuvo bo'lmay. Tunu kun sening yoding haqqi hamrohim, sirdoshim, maslakdoshim, do'stim va maxbubim bo'lsin!» – dedi.

Shunda Allohi taolo Odam Atoni uxlatib qo'yib, Momo Havoni yaratdi. Momo Havoni jismini Odamning chap qovurg'alaridan, ruhlarini esa havodan bunyod etdi. Shunday qilib, Odam Atoning matlabi tufayli dunyoda ayol yaraldi!

Ayol Erning bir burdasi...

Ammo , Ilohiy jazo

Qovushsalar-da , qo'shilib ketmaslar ¹.

Ammo oraga shayton oralab, ular jannatdan bir umrga badarg'a qilindilar. Shu tufayli Ayolni deb dunyo bir kam bo'ldi. Ayolning ko'nglini esa sirlarga to'ldirdi, atayin anglab bo'lmas mo'jizaga aylantirdi va unga qulf soldi. Kalitini esa erkakning qo'lga tutdi! Va ikkisiga mangu Ishq rishtasi bog'landi.

Farida Afro'zning "Tunlar isyoni", "Ko'zim manim" majmualarini, aksar badiiy asarlarni o'qigan misoli, ko'ngil ochar yoki ko'ngil yozar mashg'ulot sifatida qo'lga olib bo'lmaydi. Shoira she'rlari bilan oshno tutinish, suhbatlashish, dardlashishning o'zi ham kifoya emas. Shoira sevib, yonib, kuyib ko'ngil kitobini ochar ekan, siz ham shoira she'riyatining tuyg'ular qozonida qaynab, qovrilib, alanga olib kechinmalar olamiga kirib borasiz. Girdibod hislar, talotum tafakkur to'lqinlarida beixtiyor quloch yozib yuborasiz. Shoira she'rlari hech qachon va qanday holatda ham sizni befarq va beparvo qoldirmaydi. Chinakam, yombi she'riyatning sehri-jodusi, aslida, shunaqa bo'ladi. Bu, asl she'r satrlaridan yuraklarga silqib oqqan hayotga muhabbat titroqlari, muhabbatga sadoqat g'alayonlari, muhabbatga hiyonat nafratlari.

¹ Farida Afro'z. Tasbeh. T.: "Sharq", 2007, 115- bet.

Eng go‘zal va betakror hodisa shundan iboratki, shoir she‘riyati XX asr siyosatlashtirilgan o‘zbek she‘riyatida Odam shaxsidan quvilgan mafkuralashmagan ko‘ngilni Odamning o‘ziga, o‘zligiga qaytaradi. O‘zligidan olislab ketgan, o‘zga qit’alarning, begona ko‘chalarning dardi-tashvishi bilan kuyinib, kuymalanib, yozg‘irib yurgan Ko‘ngilni insonning ko‘krak qafasiga emas jonli vujudiga, yurak kengliklariga olib chiqadi. Bu – badiiy estetik tafakkurda yangi hodisa, demakdir. Ushbu go‘zallik hodisasining tabiati qanday alomatlarda, qaysi xususiyatlarda zuhur topadi?!

Inson bir umr tabiatga taqlid qilib keladi. Tabiatdan o‘rganadi; tabiatning betakror go‘zalliklariga yetishishga, ana shunday benazir go‘zalliklar yaratishga intilib yashaydi. Va lekin, ushbu jarayonda shaxsiyati sinmaydi, o‘zligini yo‘qotmaydi; aksincha, yangi ranglari, bo‘yoqlari, ohanglari, ma’nolari ila namoyon bo‘ladi. Inson gulibeorga yoki qoqigulga o‘xshagan emas. Xususan, har kuni yoki ob-havoning o‘zgarishiga qarab o‘z tusini o‘zgartirishga mahkum etilgan emas. Erta bahor tongidagi jilvagar gulibeor shomga borib yoki qorong‘u tun cho‘kkach, butkul o‘zgacha, yangi tusda tovlanadi. O‘z qiyofasini, tarovatini o‘zgartiradi. Va lekin, inson fe‘li – atvori, xarakter xususiyatlari bu xildagi oniy jilvalanishlarni ko‘tara olmaydi. Bu xildagi har maqomga kirish, har kuni yangi–yangi qiyofada namoyon bo‘lish inson uchun beburdlikdek bir gap.

Lekin ijodkor shaxsi har bir she‘rda, har bir badiiy asarda kechinma - tuyg‘ularning yangi va yangi qirralarini inkishof etmas ekan, fikr – ma‘noning yangi qatlamlarini, oxori to‘kilmagan yangi jihatlarini zuhur etmas ekan, u parvozga emas, inqirozga mahkum. Badiiy izlanishlarda ushbu xususiyat san’atkorning o‘zligini saqlab qolish, ijodiy tafakkur salohiyatini namoyon etish, demakdir. Har bir asarda ana shu taxlit yangilanish o‘quvchida har doim hayrat va havas uyg‘otadi. Ijodkor shaxsining o‘z davri va adabiy jarayondagi muqim va fayzli, betakror va faxrli o‘rnini belgilab beradi. Bu xildagi mumtoz e’tirofga hamma ijodkor ham noil bo‘lavermaydi. Xudo yorlaqagan, peshonasi yarqiragan san’atkorlarning baxtli taqdiriga yozilgan bo‘ladi, shekilli.

Farida Afro‘zning “Tunlar isyoni”, “Ko‘zim manim...” majmualari mundarijasini belgilagan asarlar ana shunday yorug‘lik ila alqangan qutlug‘ izlanish samaralaridir.

Farida Afro‘z she‘riyati mavzular ko‘lami kengayganligi, o‘zbek va jahon adabiyotidagi barcha ijodiy tajribalardan foydalanishga urinib ko‘rilganligi, badiiy izlanishlarga boyligi bilan ajralib turadi.

III – BOB

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA POETIK MAHORATNING

SHAKLLANISH JARAYONLARI

Adabiyotshunosligimizda she'r ilmiga alohida e'tibor bilan yondashish an'anasi azaldan mavjud. Adabiyotimizda paydo bo'lgan har bir o'ziga xos shoir va uning ijodi haqida tanqidchilar tomonidan fikr-mulohazalar bildirib kelingan. Shunday bo'lsada, chin iste'dod va uning mahsuli bo'lmish she'riyatni oxirigacha anglab yetish, u haqda mutlaq fikr bildirish imkonsiz. Buning boisi iste'dodning betakrorligida, uni berish mumkin bo'lmaganidek, olib qo'yishning ham iloji yo'qligida, boshqarish esa mutlaqo mumkin emasligidadir. Shoir istagani uchun emas, shoir bo'lib tug'ilgani sabab va ko'ngliga kelganiday emas, qofiyalar bilan qurollangan, to'g'ri hijolarga bo'lingan shaklda quyilib kelganiday she'r yozadi.

Shoirlik iste'dodi tug'maligi ijodkorning hassos, ta'sirchan bo'lishi, so'z mohiyatini g'ayrushuriy tarzda ham to'g'ri anglay olishi va uni xuddi shu yerda shu so'zlardan keyin qo'llashi kerakligini ilg'ay bilishi, nutq va asab tizimining o'ziga xos ishlash qobiliyatiga egaligida namoyon bo'ladi. Bolalikni, bolalarga xos hayratni saqlay olish iste'dod so'nmasligiga kafolotdir. Ijtimoiy-axloqiy cheklashlardan xoli, ta'sirchan va asosiysi, uchqur tasavvurli bolagina she'r matnini shaklan va mazmunan uyg'unlashib ketgan jonli so'z sifatida qabul qiladi. Va shoirgina bolalikdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda boshqa cheklovlardan yuqori turish, ta'sirchanlik va boy tasavvur qobiliyatini o'zgarishsiz saqlab qola biladi. Bu shoirlikning bosh talablaridan biridir, zero «bolalikda, hali hech qanday cheklovlar yo'qligida inson bir paytda bir necha hayotda yashash imkoniga ega bo'ladi va u bu xayolotga to'lig'icha cho'madi»¹. Barcha shoirga xos bu xususiyatlar har bir ijodkorda o'zgacha yo'sinda namoyon bo'ladi.

Adabiyot bolalik dunyosi bilangina joziba kasb etadi, chunki formal mantiqqa asoslanmagani holda o'ziga xos mantiqli tasavvur badiiyatning asosiy

¹ Breton A. Manifest syurrealizma. V knige "Nazıvat" veyıı svoimi imenami. M.: 1986, st.40.

unsurlaridandir. Biror qonuniyatga amal qilib yaratilgan asar, ko‘pincha, o‘lik bo‘ladi. XX asr oxiri she‘riyatida ana shu holat teran ilg‘ab yetildi. Albatta, ungacha ham o‘zbek adabiyotida bunday tasvir yo‘sini yo‘q emasdi. Ammo u milliy she‘riyat qiyofasini belgilab beruvchi tamoyil darajasiga yetmagandi. Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Ulug‘-bek Hamdam, Tursun Ali, Aziz Said, Go‘zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ijodini bu o‘ziga xos mantiqsizlikning mantiqli bo‘laklari sifatida tekshirish fikrimizning asosli ekanini ko‘rsatadi.

Mantiqiy mushohadadan qochish, g‘alatilikka, so‘z ma’nolari va shakliy o‘yinlarga atay intilish hozirgi she‘riyatimiz qiyofasini belgilaydigan omilga aylandi. Aqlga muvofiq xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan she‘rlar bugungi adabiyot uchun eskilik sanalib qoldi. Jahon adabiyotidagi turli badiiy tajribalardan yaxshi xabardor o‘quvchini bularsiz qoniqtirish mumkin bo‘lmay qoldi. Shu bilan birga ko‘pchilik shoirlar ham ijodiy yakranglikdan saqlanish yo‘lini qidirishga kirishdilar. Bunday izlanishlar adabiyotni rangin she‘rlar, betakror obrazlar va kutilmagan tashbihlar bilan boyitdi:

tushlarimni qabartirar oy
tushlarimning qadoqlari
yuragimga botmoqda¹

Bir o‘qishda, darhol anglab olinmaydigan, mantiqsizlikday tuyuladigan bu ifoda kishini she‘r matniga chuqurroq kirishga, shoir nazarda tutgan badiiy mantiqni topishga undaydi. U o‘quvchidan izlanishni, she‘r paydo qilgan yuzaki ta’sir bilan kifoyalanib qolmaslikni talab qiladi. Zotan, bunday she‘rlarda ilk hissiyot aldamchi, she‘r mantig‘ining libosigina bo‘ladi, xolos. Uni qayta-qayta o‘qigan, o‘qiganlarini teran mushohada qilgan kishi mantiqsizday ko‘ringan tasvirning go‘zal mantig‘ini topishi mumkin. Va bu jarayonda o‘quvchi, hatto, shoir

¹ Faxriyor. Ayolg‘u. –T.: «Sharq» matbaa-kontserni, 2000, 156-bet.

nazarda tutmagan haqiqatlarni ham anglab yetgan holatlar uchraydi. Shoirning tushlari (tishlari emas) nega qabaradi? U axir moddiy emas-ku? Latif ruhoniy tushunchani oy qay tarzda abartirishi mumkin?

Shoir nazarida, oy - erishish mushkul bo'lgan ulkan orzu. U bu orzusi to'g'risida, unga yetishish yo'llari, ro'yobga chiqqanda nima qilishi haqida uzluksiz o'ylaydi. Butun fikri-zikrini shu o'y band etgani uchun oy kechalari tushiga ham kirib chiqadi. Qabarish - uzluksiz takrorlanadigan zo'riqish oqibati. Ko'p yurgan oyoq, doim ketmonda ishlagan qo'l qabaradi va oy ham qahramonning tushlariga kiraverib, ularni qabartirib yubordi. Qabariq doimiy bo'lsa, qadoqqa aylanadi. Shu kabi oyga – go'zal orzuga intilaverib, uni faqat tushdagina ko'raverib, shoir ko'ngli qabardi, qabarish qadoqqa aylandi. O'sha qadoq shoir yuragiga botmoqda. She'rda mazmun serqatlamligi bilan birga shakliy o'yin ham borki, sezgir o'quvchi uni oson ilg'aydi. Ya'ni qo'ldagi qadoq shakli dastlab, qabariq ekanligida yarim oyga, qadoqqa aylanganda esa to'lin oyga o'xshab ketadi. Tush esa uxlaganda ko'riladi, uyqu tungi hodisa, tunda zulmatga botgan dunyoning, tabiiy tarzda, shoir umidsizligining yagona yoritqichi - oy. Butun she'rning serqatlam mantig'i birgina «oy» timsoli atrofiga jamlangan.

Ruhning holatini aks ettirish uchun ramzlarga, mavhum ishoralarga murojaat qilayotgan Faxriyor, Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ta'sirida she'rxonlarning ham badiiy didi noziklashib bormoqda. Ular she'rdan axborot emas, ichkinlik, tuyg'u ifodasini emas, ishora, uning «parda ortidagi tasviri»ni izlay boshladilar. Shu tariqa, modern she'r shoir bilan o'quvchining birgalikdagi ijodiga aylanadi:

Kapalak sen qadar
baxtli bo'lsaydim
so'zlarning totini olib yashasam
so'zning yonog'iga qo'nolg'a qurib
asrasam
qanotimning soyasida o'z gulzorimni

Kapalakning umri bir kun. Ammo u shu qisqa umrini dunyoning eng go'zal shakli, eng muattar bo'yi og'ushida gullar ichida o'tkazadi. Boshqa tashvishlardan u xoli. Shoirning istagi esa kapalak kabi qisqa bo'lsada, o'z gullari – go'zal so'zlar orasidagina yashash, u kabi har bir insonga xos maishiy tashvishlardan xoli bo'lish. Kapalakning gulbarglarga qo'nib, bir dam urishi shoir nazdida gullar yonog'idan bo'sa olishga, ular sharbatidan totishga o'xshaydi. Tasvir mantig'ini qarang: kapalak qanotlarida gulni eslatuvchi turli naqshlar bor, ya'ni u o'z gulzorini qanotlarida asraydi, ruhi intilgan tilak uning jismiga naqshlangan. Ayni vaqtda, kapalak gulzor uzra uchib-qo'nadi. Binobarin, gulzori uning qanotlari soyasida. Bunday baxtga muyassar bo'lishni dildan istagan shoira deydi: «so'zlarning yonog'iga qo'nolg'a qurib asrasam qanotimning soyasida o'z gulzorimni». Ammo buning iloji yo'qligini yaxshi tuygan shoira biroz o'kinch bilan orzu qiladi: «Kapolak sen kabi baxtli bo'lsaydim».

Istiqloldan keyin ijodkorning o'z ruhiyatiga, sof kechinmalari tasviriga e'tibor kuchaydi. Bu she'riy nutqda mavhumlik unsurlari, serqatlam ishoralarining, mavjud shakliy izlanishlarning ortishiga, bu holning, xususan, yoshlar ijodida ko'p uchrashiga olib keldi.

sahro bor
va unda men borman
yo'qolgan beshikka belangan men
beshik.

Olam odam uni qanday ko'rishni istasa, shu tarzda namoyon bo'ladi. Ko'ngli huvillab, yolg'izlanib qolgan shoir uchun ham dunyo – kimsasiz sahro. Borliq u va sahrodangina iborat. Ammo uni bunday mavjudlik qoniqtirmaydi. Yo'qolgan beshik – yo'qotilgan ibtido. Va undagi shoir boshqatdan dunyoga kelib, taqdirini o'zgartirmoqchi, yo'l qo'ygan xatolari oldini olmoqchi, o'z olamini qaytadan idrok etib, qurmoqchi. Ayni vaqtda, beshik arab alifbosidagi «nun» harfini, unga belangan odam boshi esa harf ustiga qo'yiladigan nuqtani esga soladi.

Modern she'r ramzga murojaat etish bilan shartlilikni taqozo etadi. Shartlilik esa hamisha ham quyilib kelgan ilhom bilan uyg'un emas. U, asosan, aql bilan o'ylab qilinadi.

ba
Sulaymon nasi istab keladi
hat
razzoq qarg'alarning ortidan.

Sulaymon payg'ambarning hayvonot dunyosi tilini bilgani ma'lum. U o'zining nasiba topishiga vosita bo'luvchi qarg'alar ortidan boradi. Ammo qanday nasiba, unga nasiba kerakmi yoki nasihat?

Ko'rinadiki, o'zbek modern shoirlari ijodida fikrni ifodalashdan ko'ra, ruh manzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Mazkur she'riyatga kutilmagan avangard izlanishlar yot emas, lekin ularda milliy o'ziga xoslik sezilib turadi. Xususan, bu holat Faxriyor she'riyatining asosini tashkil etadi. Shoirning she'rlarini takror va takror o'qib ham ko'nikilgan yaxlit fikr va xulosani ilg'ab olish qiyin.

Shoir vazn, qofiya singari talablardan qochgani, an'anaviy shaklda bitgisi kelmagani uchun shakliy o'yinlar qiladi. Buning ustiga, an'anaviy shaklga uning tuyg'ulari sig'maydi ham. Ko'nglidagi vazni, ichki musiqani bo'g'inlar, bir so'zdan iborat misralar yordamida ifodalashga harakat qiladi:

oy
tirnoq
ayol
zorlik¹

To'rt so'zdan iborat to'rt misra she'r. Aynan so'zga tanqislik she'rning ifoda siqirligi, ma'no zichligi va tasavvurni to'la ishga soluvchi kuchini ta'minlagan. Oyning shakli tirnoqqa o'xshaydi. U tunda chiqadi, ayol oyni ko'rayapti, u bedor, demak kimgadir intiq. Va ayol oyga - tirnoqqa zor: u befarzand. Ayol kishi uchun eng katta baxt tirnoq - farzand. Onalik ayolning fitratida bo'ladi. Befarzandligidan

¹ Faxriyor. Ayolg'u. –T.: «Sharq» matbaa-kontserni, 2000, 165-bet.

bebaxt ayol kechalari bedor, butun olam unga shu tun kabi qorong‘u tuyuladi va birgina oy tunni xuddi ayol ko‘nglini miltirab turgan umid kabi yoritib turibdi. So‘zni bunday o‘ynatish, unga bu qadar ko‘p va chuqur ma‘no joylay olish o‘zbek modern she‘riyatining muhim belgilaridandir. Zotan, shu tufayli she‘riy so‘z o‘zining dastlabki ma‘nosidan yuksalib, izlab topish kerak bo‘lgan sirli qiyofa kasb etdi.

O‘zbek modern she‘riyatning yaqqol ko‘zga tashlanib turuvchi, botiniy muntazamlilikni ta‘minlovchi, she‘riy nutq ta‘sirini bir necha barobar kuchaytirib beruvchi yana bir jihati unda, ko‘pincha, tinish belgilari va bosh harflarning deyarli qo‘llanmasligidadir: Tinish belgilari yo‘qligi, grammatik qoidalarga rioya qilinmaganligi tufayli misralar ham, she‘riy ohang ham omonatday tuyuladi. Bu bilan shoir o‘quvchining zavq olish yo‘siniga halal bermaydi, tasavvurini to‘la ishlatishga undaydi, uni nuqta yoki vergul bilan chegaralab qo‘ymaydi.

Bu hol she‘rdan shoir nazarda tutgan ma‘nodan butunlay farq qiluvchi, hatto, uning aksi bo‘lgan mazmunni ham chiqarish imkonini beradi. She‘rni o‘qiyotgan odam o‘z ruhi, kayfiyati, tushunchasi, saviyasidan kelib chiqib, zarur ohang tanlaydi, o‘ziga ma‘qul tarzda qofiya topadi, qaysidir so‘zni bosh harf bilan o‘qiydi. Va bu o‘quvchi badiiy didini tarbiyalab, tasavvurini uchqurlashtiradi.

Faxriyor she‘rlaridagi mantiqdan tashqari, mavhum ruhiy kechinmalar tasvirida o‘zbek modern she‘riyati aql bilan anglab yetishning tor imkoniyatlarini ko‘ngil bilan tuyish hisobiga kengaytirib berayotganligining yaqqol dalilidir:

Vido fasli — ayni namozgar
Kun qon qusar volalarimdan,
Muhabbatim aql dan ozgan.

Namozgar paytini kuzatmagan odam yo‘q, hamma ham kunning shu paytida atrof qizg‘ish shu‘laga belanishiga e‘tibor qaratgan. Ammo shoirning tiyrak nigohigina undagi qontalashlik bilan qalbini parmalayotgan tuyg‘u orasidagi aloqani ko‘ra bilgan.

She‘r badiiyati, uning yo‘nalishidan qat‘i nazar, tasvir samimiyati, jozibali tili, shoirning adabiy, milliy, shaxsiy jihatlarini ifodalay bilishi bilan belgilanadi.

Ijodkor o'zigacha mavjud bo'lgan barcha badiiy hodisalardan boxabar bo'lishi, shu bilan birga ularni takrorlamasligi ham lozim. Ishq, oshiqlik, hijronu visol haqida bitmagan shoirning o'zi yo'q. Barchaga xos bu umuminsoniy tuyg'ular tasvirida biror yangilik qilish shu bois mushkul. Chunki o'zgacha shakl an'anaviy mazmunning o'zgacha taqdimotini taqozo etadi. Shu kabi Faxriyorning «Suygulim» asari ham avvalo shakli bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi:

Suygulim, suy, gulim, suygu lim -
yuraklarim ko'zimdan toshar.
Meni yengib bormoqda o'lim,
seni esa qiynaydi yashash.

«Sevgilim» ma'nosidagi «suygulim» so'zining uch xil shaklda qo'llanilishi uning ma'no qirralarini ham xilma-xillashtirdi. Ko'z yosh deyish o'rniga «yuraklarim»ni keltirish bilan shoir his-tuyg'ulari yurakdan, ya'ni samimiy bo'lgani bois kuchli, jo'shqinligini bildiradi. Oshiq uchun yashash azoblighi, qismati o'lim ekanligi adabiyotda ko'p qo'llangan ifoda. Ammo undan keyingi satr bunga ham o'zgachalik bag'ishlaydi: ma'-shuqa nima uchun yashashga qiynaladi? Buni shu tarzda anglash mumkin: o'lim yengayotgan oshiq o'tgandan so'ng ma'shuqaning tirikligidan ne naf? U boshqalar qatori oddiy qizga aylanib qoladi. Uni boshqalardan alohida ajratib turgan narsa oshiqning muhabbati edi. Demak, oshiq borligi uchun ma'shuqa bor va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi.

Kuymoq bo'ldi mening nasibam,
baxtiyorlik –sening qismating.
Baxtmi zomin bo'ldi, masiham

baxtimizga. Baxt musibati.
Seni izlab tentar xayolim,
ikki jahon ovorasiman.
Sen-chi yotsan. Baxtning ayoli.
Yuraklarim ko'zimdan toshar,
qismat bo'ldi ko'zlar qarosi.

Qoshlar aro ayriliq yashar.

She'ning birinchi misrasidagi bir so'z - «suygulim»-ning takror va turli shakllarda qo'llanganligi bejiz emas. «Suygulim» sevgili, suyakli yor, «suy, gulim» meni sev, gulim va «suygu lim» butun dunyo ishqqa to'la, chunki oshiqning va olamning mohiyati faqat sevgidan iborat kabi ma'nolarni anglatadi. «Yuraklarim ko'zimdan toshar» - shoir yuragini, nafaqat yuragini, butun borlig'ini to'ldirgan yurak ko'zdan yosh bo'lib chiqmoqda, shoirni ishq yig'latdi va «Ko'z – ko'ngil oynasi» deyishgani singari muhabbat, avvalo, ko'zda zohir bo'ladi. Shoirning: «Meni yengib bormoqda o'lim, seni esa qiynaydi yashash» shaklidagi zidlangan anduhi sababini anglash uchun «Kuymoq bo'ldi mening nasibam, baxtiyorlik– sening qismating» satrlarini bu misralarga bog'lab izohlash lozim. Ya'ni suygilisidan ayriliq oshiq uchun o'lim bilan teng. Shoir nazarida, tiriklikka mahkum, ishq yo'lida o'lolmaydigan ma'shuqa uchun yashash ham qiynoq. Shuning uchun ham baxtiyorlik qismatday tuyuladi. Oshiq faqat ma'shuqa xayoligina unga tegishli ekanligini yaxshi anglaydi: «Sen-chi yotsan. Baxtning ayoli». Chunki u –baxtga begona. She'ning so'nggi bandidagi:

Yuraklarim ko'zimdan toshar,
qismat bo'ldi ko'zlar qarosi.

Qoshlar aro ayriliq yashar.

og'ir insoniy iztirob ildizi shunga kelib taqaladi. «Qismat bo'ldi ko'zlar qarosi» satri oshiq taqdiri ma'shuqa ko'zlariday qaro bo'lgani va shu bilan birga uni maftun etgan ko'zlarning qanchalar qora ekanligi e'tirofini anglatadi. «Qoshlar aro ayriliq yashar» satriga esa «Bizning qismatimizda abadiy ayriliq bor. Chunki ikki qosh birbiriga qo'shilolmaganiday, biz ham bir-birimizga etisholmaymiz», degan xavotirli fikr yashiringan.

Shoirning «Iqror» she'rida ishq yo'lida yuragi laxta qonga aylangan oshiq iztiroblari aks etgan. Lekin shoir tuyg'ular ifodasini jo'nlashtirish, she'riy tasvirni soddalashtirish yo'lidan bormaydi. Shuning uchun ham u holatini: «Bo'g'zimdan sirqirar tovush–qon» tarzida ifodalaydi. Tovushning qon ekani, uning jaranglash yoki hirqirash o'rniga «sirqirash»i sababi nimada?

Shoir yurak holatini mahorat ila tasvirlaydi. Yurak ishq yo'lida qonga to'lgan, ma'shuqa bergan azoblardan sirqiraydi, ishq azobi oshiq yuragini qonga aylantirgan. Shu bois bo'g'zidan otilib chiqayotgan narsa - qon... Chunki so'z yurakning tarjimoni edi. She'rda tilga o'girib bo'lmas ruhiy holat betakror ifodasini topgan.

Shoirning: «Gul - mening eng so'nggi so'zimdir» tasviri zamiridagi ma'noni izohlashga urinish kishi badiiy zakovatini oshiradi. Gul faqat chechaknigina emas, yorni ham bildiradi. Demak, oshiqning so'nggi so'zi ham ma'shuqa. She'rning ikkinchi bandidagi: «Yuragim tovondir - yorilar», so'nggi bandda esa: «Yuragim tovondir –to'layman» deyishi shoirning so'zdagi tovlanish imkoniyatlarini qanchalar chuqur bilishi va his qilishini ko'rsatadi. Tosh ustidan yalang yurgan tovon yorilib ketadi, uning qontalash yoriqlari egasiga nihoyatda azob beradi. Tovu yorilishi nihoyatda sekin bitadi. Ishq vodiysida aql, mantiq kabi himoyachilarsiz ojiz qolgan yurak u yerdagi kutish, hajr, ayriliq singari chaqirtoshlarni bosib yorildi. Yaralangan yurakdan silqib oqayotgan qon butun badanni to'ldirgan. Dilidagisini tiliga chiqarishni istagan shoir shu bois ham «Bo'g'zimdan sirqirar tovush-qon» deydi. «Tovu» so'zining ikkinchi ma'nosi to'lov. «Yuragim tovondir –to'layman» deyish bilan shoir sevgining haqini faqat qon bo'lgan yurak bilan to'lash mumkinligini, chunki butun boyligi yaralangan, ozurda yurakkina ekanligini bildiradi. «Tovu» so'zining bu xilda o'ynatilishi natijasida shoir inja, ammo o'tkir badiiy effekt yaratgan. She'rdagi: «Suyarman, kuyarman, boshimga Yetar ishq, men senga yetmasman» shaklidagi anduh she'r jozibasini yanada orttirishga xizmat qiladi: seni suydin, shu suygi o't bo'lib borlig'imni kuydirdi, kuyuklar jarohatidan ishq boshimga etdi —o'ldirdi meni, ammo men senga yetmasman. «Boshimga etar ishq» birikmasini ko'ngildagi ishq boshni ham, aqlu shuurni ham egallab oldi tarzida anglash ham, bu ishq meni halok etadi, deb tushunish ham mumkin. O'zbek modern she'riyatining bosh belgilaridan bo'lgan bunday so'z o'yinlari o'quvchilar hissiyot tizimi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish jihatidan e'tiborga loyiqdir.

She'r tahlil qilish - diqqat talab jarayon. Chunki she'rda aynan nima o'quvchini o'ziga tortganligini aniqlash, undagi joziba sirini kashf etish zarur. Bu esa oson emas, chunki biror narsaning nega yoqqanligini, u ayniqsa san'at turlariga doir bo'lsa, izohlash mushkul. Faxriyorning mazkur she'ri, avvalo, fonetik xislatlari bilan o'quvchi e'tiborini tortadi: undagi tovushlar takrori, unli va undoshlar ketma-ketligining uyg'unligi, tovushlar ta'minlagan ritm izchilligi she'r o'qilishini oson va yoqimli mashg'ulotga aylantiradi. She'rdagi tovushlar uyg'unligi bo'rtib turmagani uchun o'quvchi tovushlar ohangdoshligini «eshitmagan»i holda ular she'rda yaratayotgan uyg'unlikni, tamkinlikni, go'zallikni tuyadi.

Faxriyorning «Osmon Yaratganning...» so'zlari bilan boshlanadigan she'rida insonning dunyoga kelishidan maqsadi, uning zimmasiga yuklangan vazifalar zalvori teran tuyg'ular og'ushida lo'nda tasvirlangan:

Kuymoqqa dil berdi, suymoqqa - ayol.

Cho'kmoqqa tiz berdi, egmoq uchun - bosh.

Jon berdi ayolga etguday nisor,

Uni deb yonmoqqa - sham kabi hayot.

Yaralmay qolgani birgina visol

misralaridagi «Yaralmay qolgani birgina visol» kabi xulosalari bilan o'zbek modern she'riyati asriy tuyg'ularning bir qadar an'anaviy ifodasidan, ayrim adabiyottanuvchilar da'vo qilganlariday, butkul uzilib ketmaganligini, badiiy ifodada ham tarixiy xotira va tajribaga tayanilganini ko'rsatadi. Aslida ham she'riyat, u mumtoz yo zamonaviyligidan qat'iy, eng ibtidoiy va barchaga xos tuyg'ular: muhabbat, visol va hijron tufayli bunyod bo'ladi, uni tuyish hamda ifodalash jarayonlarigina shaxsiy, yakka holda, o'zgacha kechadi. Shoirning «Muhabbat – ko'ksingga qamalgan havo» nomli asari ham ana shu fikrning to'g'riligiga dalildir:

Muhabbat –ko'ksingga qamalgan havo,

chiqib ketolmaydi kabutar bo'lib.

Mening vujudimda yamalgan yurak

zangli hasratlarga yotadir to'lib.

Sen kimni sevarsan havolar bilan
jannat ravzasidan enmagan bir gul?
Men senga yomg'irlar bo'lib elandim,
yulduzday poyingga sachradi ko'ngul.

She'rda sevgining qismat ekani iztirobli tarzda hazin ohangda kuylangan. Dastlabki jumla «Muhabbat – ko'ksingga qamalgan havo» tashbihini izohlashga urinish asarni teranroq tushunish imkonini beradi. Havo kabi ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutib bo'lmas va, ayni chog'da, havo kabi usiz bir dam ham yashab bo'lmas ulug' tuyg'u –muhabbat har qanday cheklovu me'yorlardan ozod. Uni o'z bag'riga olgani uchun yurak ham qafasday tuyuladi. Muhabbat qafasda yashay olmaydi. Chunki bu holda u o'zligini, asl xususiyati bo'lmish ozodligini yo'qotadi. Shoir ishq ham ko'krak qafasidan ozodlikka chiqib ketishga intiladi, ammo bu imkonsiz. Havoning ko'krakdan «chiqib ketolmaydi kabutar bo'lib» tarzida ifodalanishi, misradagi jonlantirish bergan badiiy samara yuksak. Qush — inson ruhi timsoli. Muhabbat shoir uchun jon qushiga aylanib qolgan. U kabutar kabi ko'ksni –qafasni tark etsa, shoir hayotdan ko'z yumadi. Ayni misraning o'zini muhabbat ko'ksingdan joy olgan momomiz Havo tarzida izohlash va she'rni shundan kelib chiqib tahlil etish ham mumkin. Qahramonning: «Mening vujudimda yamalgan yurak» shaklidagi to'xtamining «zangli hasratlarga yotadir to'lib. Sen kimni sevarsan havolar bilan jannat ravzasidan enmagan bir gul?» misralaridagi so'roqli iqrorda og'ir insoniy iztiroblari ildizi aks etgan. Shoirning ma'shuqasi buyuk momomiz singari jannat bog'idan tushgan bo'lmasada, havosi unikidan kam emas.

She'rning ayni misralari boshqacha izohlanadigan bo'lsa, o'zini qafas devorlariga urib potirloyotgan kabutar - muhabbat oshiq yuragiga jarohat yetkazgan va shoir yuragi tug'ilgandan ishq dardini torta-torta qadimiylik, ko'hnalik kasb etgan. Muhabbatdan pora-pora bo'lgan yuragiga yana shu muhabbatning o'zi yamoq, u jon qushini yurakda ushlab, shoir tirikligini

ta'minlamoqda. Ko'hna hasratlar ham yurakning ishq dardida to'kkan yoshlari oqibatida zanglab ketgan.

Faxriyor ijodida bugungi o'zbek she'riyatiga hos asosiy jihat aks etgan: o'quvchi she'rni o'qibgina qolmay, ijro etishi, boshdan kechirishi lozim. Busiz she'rdagi ruhiy holatni tuyish mumkin bo'lmaydi.

Men ham sevgan edim mung'ib, emranib,
ko'z emas, ko'ngilning yoshlari bilan.
Yoshlar kor qilmadi, muhabbat –g'anim,
ko'ngilni sindirdi toshlari bilan.

Qofiyalarga unchalik e'tibor qilinmaganday tuyuluvchi bu she'r g'oyat ohangdor va bu poetik musiqa zamiriga chuqur ma'no yashiringan. Birinchi misradanoq she'rxon tushkunlikka tushadi: «Men ham sevgan edim mung'ib, emranib». Yunus Emroning «Oshiq kishi g'arib bo'lar» degan so'zlari bor. Ishq oldida barcha teng. Shohmi, gadomi ma'shuqaning bir nigohi, imosiga mahtal bo'ladi, uning har so'zini bajarilishi shart bo'lgan farmon tarzida qabul etadi. Va ishq oshiqdagi muhabbatdan bo'lak barcha tuyg'uni: kibr, quvonch, qayg'u, olimlik, hukmfarmolik, menlikni yo'q qilib tashlaydi. Oshiqning haqi –faqat kutish. U yuragi ishq zo'ridan tars yorilay deb, entikib, emranib sevadi. Shuncha ruhiy qudratga qaramay, oshiq –g'arib. Zero, uning bor-yo'qligi ma'-shuqa qo'lida. «Ko'z emas, ko'ngilning yoshlari bilan» deydi u. Erkak juda ilojsiz qolgan, o'limdan boshqa chora bo'lmagan, g'ururni yig'ishtirib qo'ygandagina yig'laydi. Azoblar oshiqning ham jonidan shunchalar o'tib ketganki, uning ko'zi emas, ko'ngli yosh to'kadi:

Oynalari singan deraza –ko'ngil,
unda na kulning, na gulning aksi bor.
Tindingmi, ko'z yoshim, so'ndingmi, ey dil?

Toshdan qattiq, shishadan nozik ko'ngil –oshiq makon topishi mumkin bo'lgan yagona qal'a. Muhabbat otgan toshlardan chil-chil bo'lgan ko'ngil parchalarida na gul – yorning, na-da kul – ishq olovida yonayotgan dilning aksi bor. Ishqning azoblaridan to'kilgan yoshlar sevgi o'tining o'zini o'chirib

qo'ymadimikan? Faxriyor she'riyati favqulodda tashbihlari bilan diqqatni tortadi. She'riyatda oshiq timsoli sifatida kelgan bulbul uning qalamida o'zgacha yuk tashiydi:

bulbulning tilini qamishga boylab

ko'ksimga botirib jonim avaylab

Shoir nazdida qalam ma'shuqaga o'z ishqini ifodalashi lozim bo'lgan bulbul. Bu qalam ravon yurishi, go'zal va muqaddas tuyg'uni yurakdan tilga ko'chirishi uchun siyoh kerak. Ishq to'la ko'ngil – siyohdon, ko'ngildagi ishq esa – siyoh. Faxriyor so'zlarni o'ynatib yuboradi, yondashuv o'zgachaligi, hissiy anglash kuchli bo'lgani bois so'zlar ma'nogina, emas rang ham kasb etadi:

qaro tun katida ummedim falaj

o'ylarim o'yilar ko'zday na iloj

Kundalik nutqda oddiygina «umidim» deyiladigan so'z tovush orttirilishi va o'zgarishi bilan o'zgacha joziba, musiqiylik kasb etadi. Tun - zulmat, qop-qorong'u. Unda bedor shoirga faqatgina o'ylari hamroh. Ammo butun borliqni hukmi ostiga olgan sukut, harakatsizlik shoir o'ylarini ham falajlantirgan. Tun shunchalar quyuqki, unga bemalol cho'zilib yotish mumkin. Uyqu – yarim o'lim. Shoirning ham faqat orzu-umidlarigina uyg'oq, demak tirik. Va «ummedim» deyish bilan uni shoir og'ir xastalik to'shakka mixlab qo'ygan odamning fojeiy holiga mengzaydi. Faxriyor so'zning nafaqat ma'noviy, balki shakliy jihatlariga ham e'tibor beradi. U so'zni aytibgina qolmaydi, balki moddiylashtirib, o'quvchiga ko'rsatadi ham. She'rning bu xildaligi kishini o'ylashga undaydi, badiiy so'zdan olingan taassurotni xilma-xillashtiradi. Oy haqida deyarli barcha shoirlar she'r bitgan. Lekin Faxriyor oy haqida gapiribgina qolmay, uni o'quvchilariga ko'rsatadi ham:

nahotki

mening qobirg'amdan to'ragan

Hilol – uch kunlik yangi oy qobirg'a shakliga bir qadar o'xshaydi. Bu holat she'rxon tuyg'usini aniq tasavvurga aylantiradi. Modern she'riyat uchun vizuallik maqsad emas, u yangi, tutilmagan she'riy obrazlar yaratish vositasidir.

Faxriyor kutilmagan holatlarni tutilmagan obrazlar vositasida tasvirlaydi:

soching daryosida cho'milar aqrab
mening esa qo'llarim qaqrar

Shu paytgacha she'riyatda yor sochi qora tunga, shalolaga, dengizga, ikki o'rim bo'lsa ilonga o'xshatilishi an'ana tusini olgandi. Shoir qo'llari yor sochini silay olmaslikdan, ya'ni daryoga yaqinlasha olmaganidan tashna. Sochni silashga chayon halal beradi. Shu xavf oshiq qo'llarini tashnalikda tutib turadi. Qadimda qizlar sochlarini quloq yonidan qayrilma gajak qilib tushirib yurishgan. Shoir nigohi gajak va chayon nishi o'rtasida mushtaraklik topa olgan va uni nihoyatda go'zal qo'llagan: soching daryosida cho'milar aqrab. Ma'shuqaga tegishli barcha narsa oshiq uchun «eng» degan chegaradan ham oshib ketgan, shu bois gajak uchi chayon nishi kabi o'tkir va halokatli. Shu bilan birga uni silamaslik oshiq nazdida kechirilmas gunoh. Shu bois chayon nishidan halok bo'lish xavfi ham oshiqni ko'ngli talpinib turgan havasdan saqlab qololmaydi:

Soching daryosida yuvmagan
gunohlarim kechirmas egam

Ma'shuqa sochi - suv to'la daryo. Gunohlardan suvda yuvinib poklanish lozim, poklanmaguncha Yaratgan uni kechirmaydi. Avvallari shunchaki go'zallik timsoli bo'lgan soch endi tavba, poklanish omiliga aylandi.

Baxtimmidi sochlaring –qaro,
O'pgan, suygan, surtgan ko'zimga?
Sochlaring-bir sim-siyoh sharor,
Baxtimizni kuydirar zimdan.

Go'zalning sochlari - sohibasiga ishq tushgan oshiq baxti singari qora. Baxt shu paytgacha adabiyotda yorug', nurli ranglarda, ko'tarinki so'zlarda ifodalanardi. Faxriyor baxtni qora rangda tasvirlash bilan poetik tasvirda yangilik yaratdi. Qiz sochlarini suyib, ko'zlariga surtib o'pgan shoir uchun u baxt hamda baxtsizlik timsoli.

Shoir tabiatga xos jihatlarni insonga ko'chirganiday, «dalalar ko'k kiyar–ayoz qolar tul», - deya odamga maxsus holatlarni tabiat manzaralariga ham

o'tkazib, badiiy obraz yaratadi. Bahorda dalalarni qoplagan ko'mko'k maysa aksariyat shoirlar ijodida tirilish, jonlanish, shodlik ramzidir. Faxriyor uni o'lgan qishga tutilgan aza, deb taqdim etmoqda. Qish o'lgani uchun tabiat ko'k kiygan.

Faxriyor tashbihlarni atay izlab topadi, she'rlarida hech kimga o'xshamaslikka, tasvir originalligi bilan boshqalardan farqlanib turishga intiladi va bunga mahorat bilan muvaffaq ham bo'ladi. «Falakning ko'zlari mensirar – xunxor» deydi u bir she'rida. Falakning ko'zlari nima ekan? Kun botishi oldidan qon kabi qizarib ko'rinadigan quyoshmi yoki tong otish oldidan nim qizil rangga bo'yaladigan oymi? Balki quyosh chiqishi yoki botishi oldidagi qontalash shafaq unga ko'zni, elas-elas ko'zga chalinadigan bulutlar esa qovoqlarni eslatgandir? Va nega bu ko'zlar shoir qoniga tashna? Ehtimol, har ikkisi: oy ham, quyosh ham, ya'ni kun va tun shoir niyatiga to'sqinlik qilayotgandir?

Faxriyor so'z sirlarini puxta o'zlashtirib, ularni o'zi istagan ko'yga soladi, o'ynaydi.

Men baxtli(k)man, peshonam sho'r, o!

Parvardigor, o'zing kechirgil

Men osiyni.

Mening yolg'iz gunohim –vergul!

Faqat tug'ilgan joyigina Baxt bo'lgan shoir taqdiri, afsuski, baxtiyorlikka to'g'ri kelmaydi. Uning qilgan yagona va ulug' gunohi vergul. Qiziq, bu tinish belgisida nima borki, shoir o'zini uni qo'llagani uchun osiy sanamoqda? Shu yerda she'r shakliga e'tibor qaratish lozim. «Men baxtli(k)man, peshonam sho'r, o!» jumlasidagi birinchi vergul olib tashlansa, «Men baxtlikman peshonam sho'r» ma'nosi kelib chiqadi, shoirning o'zini ham qiynab yurgan mavhumlik: «Baxt» – makon va «baxt» - holat orasidagi ikkilanish barham topadi. Shoir noma'lumlikda yashagandan ko'ra, baxtsiz yashashni afzal ko'radi. Chunki dunyoda noma'lumlik, mavhumlikdan ulug'roq azob yo'q.

So'z -lohiy qudratga ega ne'mat. «Unga ulkan mas'uliyat bilan yondashish, so'z aytishning javobgarligi qanchalar og'irligini hamisha his qilish joiz. So'z

odamdir, soʻz qismatdir, soʻz millatdir. Shu bois ham jamiyatga, millatga qilinadigan zulm soʻzga zugʻumdan boshlanadi».¹

Soʻz inson mohiyatini namoyon etish salohiyatiga ega boʻlgani uchun, qanday soʻzlashiga qarab, odamning saviyasi, bilim darajasi, aql-farosati, xulq-atvori va u mansub boʻlgan millat haqida hukm chiqariladi. Modern sheʼriyat ijodkor maʼrifati, milliy va jahon adabiyotidan nechogʻlik boxabarligi, falsafiy mushohada yuritish darajasi, tafakkur koʻlami qanchalar keng va fikrlari nechogʻlik teranligidan dalolat beradi. Chunki bu sheʼriyat quyilib kelgan ilhom natijasi emas, balki yangilik istagan koʻngillarning ehtiyojiga koʻra fikr bilan hissiyot aralashligida qilingan badiiy tadqiqotdir. Adabiyot taraqqiyotining bu bosqichida hislar oʻzining butun ifodalab boʻlmas qirralari bilan sheʼrga koʻchganligining boisi shunda.

Inson qalbini toʻla anglab yetish mumkin emas. Oʻzga u yoqda tursin, oʻz tuygʻu va kechinmalarini izohlab berishga qiynaladigan odamga modern sheʼriyat keng imkoniyat beradi: odam va olam oʻrtasida hech qanday chegara qolmadi. Yoʻl ochib berilgan tuygʻular oqimi ham tobora turfalashib, boyib bormoqda. Endi kapalakka aylanishni istagan shoir oʻquvchida kulgi uygʻotmaydi, u buning sababini izlashga kirishadi. Yoki «Bugun yulduzlarning dam olar kuni» deya eʼlon qilgan ijodkor ruhiy holati bulutli tun kabi rutubatli, zulmat, tushkun ekanligi tushuniladi. Faxriyor ham sheʼrda oʻzini shunday bayon qiladi:

Men – yoʻqsil oshiq
engil qilib kiyaman dilni
Dilim katta kelar egnimga
yerlarga sudralar dilimning bari

Sheʼr tugʻdirgan dastlabki tuygʻu — eʼtirof. Oʻzini yoʻqsil, faqiru bechora atayotgan oshiqning dili shunchalar ulkan ekanki, egasining jismiga katta kelib, hatto, unguri yerga tegib ham qolibdi. Tuygʻudan soʻng tushuncha keladi. Darhaqiqat, tuzukroq oʻylab koʻrilsa, oshiqda dildan boʻlak yana nima, qanday

¹ Yoʻldoshev Q. Oʻzlik chaqinlari. «Turkiston» gazetasi, 2001 yil 3 avgust.

boylik bo'lishi mumkin? U qo'lidagi barcha narsani ishq yo'liga qurbon qilgan, faqat dilnigina qoldirgan, chunki unda ishq yashaydi. Kiyadigan kiyimi, yeydigan taomi, hordiq chiqaradigan joyi, ranjli hayotidagi yagona tirgagi — dil. Balki uqubatlar tufayli ozib, jismi kichraygani uchun dil oshiqqa katta kelar, balki undan qaynoq ishq joy olgani uchun dil oshiqni ko'mib yuborar. Buning ustiga, katta qalblargina muhabbatga makon bo'ladi degan qanoat ham bor-ku! Nima bo'lganda ham, o'zining yagona boyligiga oshiq bee'tibor qaraydi «yerlarga sudralar dilimning bari». Lirik qahramon yurakni juda moddiy, xuddi bir unguri erga sudralgan kiyimday tasavvur qiladi. Uning uchun butun olam va o'zi ham ma'shuqa yodidan iborat.

She'r - shoirning mohiyati. Shoir qo'llagan har bir so'z, ularning joylashtirilish tartibi, hijolar soni – bularning barchasidan ijodkor intellekti, kechmishi, tafakkur tarzi, shaxsiyati, his-tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda, shoir botini haqida bexato tasavvurga ega bo'lish mumkin.

She'r ijodkor tasavvuridagi badiiy go'zallikning moddiy ko'rinishidir, u shoir iste'dodining inkor etib bo'lmas muvafaqqiyatidir, shoir irodasi, fikri, tuyg'ularining namoyon bo'lishidir. She'r shoir iste'dodining chinligi va kuchidan dalolat beruvchi badiiy fikr shaklidir.

Har bir ijodkor o'zidagi ruhiy holatlarni aniqroq etkazib bera olish uchun qo'llayotgan tili nozikliklarini puxta egallagan bo'lishi zarur. Busiz o'zini anglatish, tuyg'ularini so'zda namoyon qilish imkonsiz. Faxriyor ana shunday ijodkorlardan. Uning ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos badiiy hodisadir. Shoir she'rlarida so'z o'zining qudrati, shiddati, jozibasi bilan to'la namoyon bo'ladi. U so'zni jonlantiradi, tuyg'ularni nafaqat his etish, balki ko'rish imkonini ham beradi:

Ilon —
dunyodagi eng kichik,
uzunligi bir quloch daryo.
...Oqib ketayotgan ilon uzunligini
o'zi bilan olib ketar hamisha...

She'riyatda ilondan obraz sifatida foydalanish kamchil hol. U arqonga, chilvirga, satanglar qoshiga o'xshatilardi. Lekin birinchi bor daryoga o'xshatilmoqda. Oftobda daryo suvining jimirlab oqishini va ilonning bilanglab sudralishini ko'z oldingizga keltiring. Daryo uzunligi bir necha ming chaqirimlarga etadi, ammo ilonning davomi, izi yo'q, faqat qumdagina bilinar-bilinmas chiziqlar qolishi mumkin. G'aroyib, ammo mantiqli o'xshatish. Har qanday badiiy asarda birinchi navbatda tirik odamlar, tirik tuyg'ular harakat qilishi kerak. Shundagina asardagi tug'yonlar o'quvchi qalbiga ko'chib, o'qib bo'lingandan keyin ham davom etadi. Tiriklik - tabiiylikni, tabiiylik esa asar o'lmasligini ta'minlaydi. Faxriyor tuyg'uni tuyganicha bayon etadi:

Daraxtlar uzlatgir bog'lar,
Adirlarda yashil izdihom.
Yuraklarda ishqqlar dog'lar,
Musibatlar arir – kuz degan...

Qishda barglari to'kilib, uzlatga chekinganday bo'lgan bog'lar ko'klam kelishi bilan barg chiqarib, kurtak yozib yana daraxtga aylanadi. Qiru adirlarni yam-yashil maysalar qoplaydi. Chiqayotgan sanoqsiz maysalar - yashil izdihom. Yurakda hijronu azoblardan qolgan dog'lar bahorning qitiqlashidan uyg'onib, «ishqqlanadi» - muhabbatga asir bo'ladi. Tilimizda bunday so'z yo'q edi. Lekin yaratilgani qanchalar yaxshi.

Maysalarning erir qiyoy tilida
Toshlar novvot misoli.

Qiyoy - ojizgina maysaning nozikkina bargi. Lekin u o'zidagi yashash ishq sabab xarsang toshlarni novvotday eritadi.

Qo'zigullar quyoshni emar,
Ilon kabi izg'ir pechaklar.
Yalangoyoq turar - boy emas -
Pullariga kuygan chechaklar.

Quyosh nurlaridan butun tabiat, jonliyu jonsiz borliq –birday bahramand. Ammo qo'zigulni ta'kidlash bilan shoir o'quvchining qo'shimcha ma'noga ham

e'tibor qaratishini istagan: «emar» sifatdoshi hammadan ko'ra «qo'zigul» qo'shma so'zining birinchi qismi «qo'zi»ga ko'proq mos keladi. Shoir nazarida, quyosh nurlaridan bahra olayotgan qo'zigul ona sutini emayotgan qo'zichoqqa mengzaydi. Poyasini tuta olmay yer bag'irlab o'sadigan pechaklarning o'zidan baquvvatroq o'simliklarga chirmashib o'sishi unga ilonning yerdagi harakatini eslatadi. «Ilon kabi izg'ir pechaklar» misrasini o'qiboq ko'z oldingizda maysalar orasidan bilanglab sudralayotgan ilonga o'xshab o'sayotgan pechak gavdalanadi. Barchaga tanish, barcha bilgan va shaxsan guvoh bo'lgan holatlarning butunlay notanish, o'zgachaligi bilan go'zal ifodasi.

Milliy mumtoz adabiyotdan ham, jahon she'riyatidan ham yaxshi xabardor, shakliy san'atlardan o'rni bilan foydalana oladigan, dunyo nazmidan bir ko'p go'zal tarjimalar qilgan shoir she'rlarida o'zbekka xos xususiyatlarning inja ifodasini saqlay olgan:

Erimas uning ham boshidagi qor.

Yelkasiga tirmashar

nevarasi alpinist kabi

Butun boshli xonadon

turar unga suyanib...

Birinchi misradanoq yillar sochini oqartirib yuborgan oqsoqol ko'z oldingizga keladi. Nega kampir emas? O'zbek xonadonining tog'i, demakki, tirgagi bo'lish faqat erkakka maxsus. «Erimas uning ham boshidagi qor» — asriy cho'qqilardagi abadiy qorlar kabi bu oqargan boshdagi qorlar qayta erimaydi, soch qoraymaydi. Erimas qor so'zlaridanoq o'xshatish toqqa, gap esa erkak kishiga taalluqligi ayonlashadi. Ota uchun o'z bolasidan ham ko'ra nabira –shirin. Uning har qanday aybi kechiriladi, nabiraga hamma narsa mumkin. Bolakayning bobosi yelkasiga osilib o'ynashi tasvirini yillar ham kuchini yemira olmagan shu azamat qoyani zabt yetishga ahd qilgan alpinistga mengzash bilan shoir tanish holdan o'zgacha manzara yarata biladi. «Butun boshli xonadon turar unga suyanib» - qanchalar o'zbekona ifoda, holatning izoh talab qilmas tasviri!

She'r nutqqa estetik zavq uyg'otadigan go'zallik baxsh etadi. Bu go'zallikni mohirona tanlangan so'zlar va ritm uyg'unligi ta'minlaydi. Demak, har bir shoir oldida o'quvchiga zavq bag'ishlaydigan va uni lol qoldiradigan so'zlarni tanlash hamda ularni bir-biriga uyg'un keltirish vazifasi turadi. She'rda kechayotgan jarayonni o'quvchi ko'rishi, tinglashi va tuyishi lozim. Buning uchun shoir his-tuyg'ularni aniq va zich, eng asosiysi, jonli qilib she'rga ko'chira olishi lozim. Faxriyorning ijodi har jihatdan bu talablarga javob beradi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek modern she'riyatidagi yangilanishlarning mohiyati yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, o'zbek modern she'rlaridagi shakliy o'zgachalik ma'no teranligini ta'minlashga qaratilgan, ikkinchidan, yangilangan o'zbek she'riyatida so'z xususiylashtirilgan, ya'ni shoir yuklagan ma'noni ifodalaydi, uchinchidan, yangilangan o'zbek poeziyasida vizual she'rlar ko'payib bormoqda, lekin u maqsad emas, yangi, tutilmagan poetik obrazlar yaratish vositasidir, to'rtinchidan, modern she'riyat poetik qonunlardan ko'ra, ijodkor ko'ngli mayllariga bo'ysunadi, beshinchidan, hozirgi o'zbek modern she'rlarida so'z, musiqa va harakatning, ya'ni tasvirlanayotgan holatni o'quvchiga ko'rsatish, eshittirish va his qildirish uyg'unligi hamda muntazamligiga erishib borilayotgani uning badiiy ta'sirini oshiradi.

X U L O S A

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'tdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligi anglandi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi. O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega istiqlool she'riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotidagi alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi.

Bu badiiy hodisaga istiqlool she'riyati degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlool davrida yaratilgani, millat ahlini ozodlikka undagani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nligini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki istiqlool huquqiy atama bo'lishi bilan birgalikda ruhoniyma'naviy tushuncha hamdir. Ya'ni mutsaqillik kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi.

Istiqlool she'riyatining Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Tursun Ali, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimhammad, Zebo Mirza, Farida Afro'z singari vakillarining asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyon bo'ladi. Istiqlool she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy, olis va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga intilish kuchaydi. Unda ko'ngilni tozalashga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati shakliy izlanishlar miqyosi kengayganligi bilan ham xarakterlanadi. Unda jahon adabiyotidagi samarali tajribalarni o'rganish va boyitishga intilish g'oyat kuchaydi. Ifodada to'liq erkinlikka intilish istagi

o'zbek istiqlol she'riyatida yangi shakllarga ehtiyoj uyg'otganligi uchun shakliy imkoniyatlarni kengaytirish yo'lidan borilmoqda. O'tmishda Vatan, milliy g'urur madh etib bitilgan she'rlar talaygina. Biriq, baribir, 1990–2000 yillar she'riyati o'z xususiyatiga ko'ra ko'ngil lirikasidir. Chunki bu davrda eng faol ijod qilgan A.Oripov, E.Vohidov, M.Yusuf, B.Ro'zimuhammad, H.Ahmedova, E.Shukur, Sh.Rahmon, Faxriyor, S.Sayyid, I.Mirzo, R.Rahmat, A.Hayit, F.Afro'z kabi o'nlab shoirlar asarlari - ko'ngillari mevasidir.

Istiqlol davrida ham she'riyat hamma mavzularni tarannum etdi. Lekin u g'oyadan, g'oyaparastlikdan ancha uzoqlashdi. Istiqlol davrida poeziyada g'oyaparastlik o'z kuchini yo'qotdi. She'riyat hukmron g'oyadan-yagona yetakchi mafkuradan chekindi. Bu juda muhim faktor. Chunki u davr she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biri.

Ayni paytda, istiqlol davri she'riyati faqat ko'ngilning intim kechinmalarini kuylash bilan chegaralanib qolgani ham yo'q. A.Oripov, T.Mahmud, S.Sayyid, I.Mirzo kabi o'nlab shoirlar ijodida ona-Vatan, o'tib ketgan ulug' bobokalonlar, milliy g'urur, urf-odatlar madhi, o'zbekning hech kimdan kam emasligi masalalari ancha baland pardalarda tarannum etilmoqda.

Bugungi o'zbek she'riyati qat'iy shakliy qoliplarni quloqqa moslashish talabi natijasi hisoblab, chin ko'ngil ifodasiga aylanishga astoydil urinmoqda. Daraxt o'z yaproqlarini yangilab turmasa, o'smagani kabi she'riyat ham tinimsiz izlanishlar ichra bo'lmasa, ichki taraqqiyot to'xtab qolishi mumkinligi anglab etildi.

Qanchalik yuksak badiiyat samarasi bo'lmasin, kechagi kun she'riyati bugunning odamini to'la qoniqtir olmaydi. Bugungi odam bugungi adabiyotga muhtojdir. Bugungi ko'ngil bugunning tuyg'ularini kechirmoq istaydi. Ehtimol, bugungi aqlga oziq bo'ladigan dono fikrlar allaqachonlar aytib qo'yilgan va bugun uni yangilash shart emasdir, lekin bugunning ruhini bezovta qiladigan she'riyat-bugungi odamning ko'ngil mavjlari. Bu haqiqatlarni she'r ahli ham, o'qirmanlar ham, adabiyotshunoslar ham anglab etganligi o'zbek istiqlol she'riyati bag'rida she'riy istiqlol vujudga kelishiga umid tug'diradi. Ya'ni ertangi o'zbek she'riyati

o'zini va olamni chuqur o'rganish yo'liga tushgan o'zbek kishisining ko'ngil manzaralarini yorqin hamda ta'sirli aks ettirishning samarali va o'ziga xos yo'llarini kashf etishiga ishonch hosil qilamiz.

Biz magistrlik ishimizda Sh.Rahmon poeziyasiga ham alohida fasl bag'ishlagan edik. Ta'kidlash kerakki, Shakat Rahmon she'riyati shunchaki she'rlar, to'plamlar jamlanmasi emas. U chuqur falsafiy, ruhiy, ijtimoiy-ma'naviy haqiqatlarning qog'ozdagi aksidir. Butun ijodi, butun o'y-hayoli, qayg'ulari, dardlari bilan aziz vatan sari talpingan, suygani ham, sog'ingani ham shu makon bo'lgan, umrining mazmunini Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik so'zlari zahiriga joylagan shoirning yozganlarida zarracha soxtalik yo'q. Shoirning badiiy detallarigina emas, u qo'llagan har bir so'z she'rxonni ishontira olgan. Shavkat Rahmon she'riyati turfa tahlillar, mulohazalar, turfa izlanish va xulosalar bilan yanada teranlashib, oydinlashib boraveradi.

Bir so'z bilan aytganda, Shavkat Rahmon degan she'riyat, hech shubhasiz, yangi va uyg'oq hayotga chorlovlardir. Bu haqiqatni unutmagan holda aytish mumkinki, badiiy detallarni samarali, eng muhimi, lirik asar mohiyatidan kelib chiqib, o'z o'rnida qo'llay olgan Sh. Rahmonning bu boradagi mahorati, o'ziga xos qirralari yana ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'la oladi.

Ishda Farida Afro'z she'riyatidagi badiiy xususiyatlari o'rganildi. Darhaqiqat, shoiraning poetik izlanishlari natijasida o'zbek she'riyati yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ldi. Farida Afro'z she'riyati ko'ngildagi kechinmalar va ruhiyatdagi jarayonlarni badiiy ifodalash ehtiyoji samarasidir. Uning she'riyatida *“ijod bu eng avvalo tuyg'u, tuyg'uni esa abadiy nazorat qilish mumkin emas”* ligi tushunilib, shunga amal qilindi. Ijodkor shaxsiyatiga xos sifatlar shoir she'rlarida ochiqchasiga aks eta boshladi. Farida Afro'z she'riyatida simvolizmning badiiy funksiyalariga amal qilindi. Shoir sobiq tuzum sharoitidagidek, dardu alamlarini aytolmagani uchun ramz tilidan foydalanmadi, balki yalang'ochlikdan, ma'lum gaplarni ochiqchasiga aytishdan qochib, she'rni sirlilik bilan yasantirish uchun ham ishoralar tilini tanladi. Farida Afro'z she'riyatida keng miqyosda amalga oshirilgan shakliy izlanishlar kuzatildi. Bu izlanishlar oqibatida ruhiy

kechinmaning bir zarbning hosilasi bo'lgan, ya'ni o'z ichki ohangi, iztiroblari shakli, mazmuni bilan tug'ilgani ham, badiiy barqaror matn holiga kelgunga qadar shoira tomonidan qayta-qayta ishlangan she'riy matnlar ham bor. Farida Afro'z ijodiga modernizm yo'nalishi kuchli ta'sir qildi. Farida Afro'z she'riyatida tasavvuf ta'limotidagi qarashlar hamda modernizm yo'nalishi namoyandalarining uslub va izlanishlari badiiy uyg'unlashtirildi. Farida Afro'z she'riyatida janriy – uslubiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishning va ichki ehtiyojning yuqoriligi adabiy janrlar tabiatining ham bir muncha o'zgarishiga olib keldi. Oqibatda, yangi uslubdagi, o'ziga oq va tablo she'rning xususiyatini singdirgan asarlar paydo bo'ldiki, ularda dardli ko'ngil izhori, so'zning jozibasi belgilar vositasida ko'rsatib berildi. Farida Afro'z ijodida mumtoz she'riyatning janrlari bir qadar isloh qilindi.

Istiqlol davri adabiyoti, xususan, she'riyati borasida so'z yuritganimizda, keyingi 15-20 yil mobaynida tobora o'z muxlislari mehrini qozonib borayotgan modernistik she'riyat ustida ham to'xtalib o'tganimiz bejiz emas. Chunki XX asr avvalidan beri she'riyatimiz asosan barmoq vaznida, hamda qisman aruzda o'zini namoyon etib kelgan edi. 70-80 va 1990 va 2000 yillarda an'anaviy poeziyadan ham ifoda usuliga ko'ra, ham mazmun-mohiyatiga ko'ra etarlicha farqlanib turuvchi she'riy yo'nalish paydo bo'lib, yana o'z o'rniga ega bo'lib ulgurdi. Biroq shakllangan yo'nalish sifatida u 90 va 2000 yillarda o'zini ko'rsatdi.

Darhaqiqat, olamni yangicha his etish samarasi bo'lmish hozirgi o'zbek she'riyatida turg'unlik emas, doimiy o'zgarishlar an'anaga aylandi. Ya'ni o'zgarishlarning tinimsizligi an'anasi paydo bo'ldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugungi kunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni, hatto o'zini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi she'riyatning etakchi belgisiga aylandi. Ishda kunimizning yirik shoirlaridan biri Faxriyorning ijodi bunga yorqin misol tariqasida tahlilga tortildi.

Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham unchalik oson emas. Lekin uning asarlari milliy she'riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik kishi estetik va ma'naviy tafakkurining kemtikligiga

olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi o'quvchi Faxriyot asrlarini o'qishi, o'rganishi, tahlil qilishi zarur.

Ku'rinadiki, o'zbek modern shoirlari ijodida fikrni ifodalashdan ko'ra, ruh manzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Mazkur she'riyatga kutilmagan avangard izlanishlar yot emas, lekin ularda milliy o'ziga xoslik sezilib turadi. Xususan, bu holat Faxriyot she'riyatining asosini tashkil etadi. Shoirning she'rlarini takror va takror o'qib ham ko'nikilgan yaxlit fikr va xulosani ilg'ab olish qiyin.

Ruhning holatini aks ettirish uchun ramzlarga, mavhum ishoralarga murojaat qilayotgan Faxriyot, Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ta'sirida she'rxonlarning ham badiiy didi noziklashib bormoqda. Ular she'rdan axborot emas, ichkinlik, tuyg'u ifodasini emas, ishora, uning «parda ortidagi tasviri»ni izlay boshladilar. Shu tariqa, modern she'r shoir bilan o'quvchining birgalikdagi ijodiga aylanmoqda.

Istiqloldan keyin Faxriyotning o'z ruhiyatiga, sof kechinmalari tasviriga e'tibor kuchaydi. Bu she'riy nutqda mavhumlik unsurlari, serqatlam ishoralarning, mavjud shakliy izlanishlarning ortishiga, bu holning, xususan, yoshlar ijodida ko'p uchrashiga olib keldi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek modern she'riyatidagi yangilanishlarning mohiyati yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, o'zbek modern she'rlaridagi shakliy o'zgachalik ma'no teranligini ta'minlashga qaratilgan, ikkinchidan, yangilangan o'zbek she'riyatida so'z xususiylashtirilgan, ya'ni shoir yuklagan ma'noni ifodalaydi, uchinchidan, yangilangan o'zbek poeziyasida vizual she'rlar ko'payib bormoqda, lekin u maqsad emas, yangi, tutilmagan poetik obrazlar yaratish vositasidir, to'rtinchidan, modern she'riyat poetik qonunlardan ko'ra, ijodkor ko'ngli mayllariga bo'ysunadi, beshinchidan, hozirgi o'zbek modern she'rlarida so'z, musiqa va harakatning, ya'ni tasvirlanayotgan holatni o'quvchiga ko'rsatish, eshittirish va his qildirish uyg'unligi hamda muntazamligiga erishib borilayotgani uning badiiy ta'sirini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: «O'zbekiston». NMIU. 2009, 40-bet.
3. Begimqulov D. SHe'riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. -Toshkent: 2000, 432-bet.
4. Vohidov E. Har zamonning o'z muhri bor. // Guliston.-Toshkent, 2003. - № 3, 122-123-bet.
5. Vohidov R, Hoshimova M. SHe'riyat - shoir yuragi. Toshkent:“Fan”, 1987, 68-bet.
6. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2002.
7. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. Toshkent: "Sharq" NMK, 1998, 464-bet.
8. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslik nadur? // Tafakkur. - Toshkent, 2000.- № 3, 65-bet.
9. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. -Toshkent: 1996, 54-bet.
10. Norboyev B. Istiqlol va iste'dod tarbiyasi.Toshkent: “O'qituvchi”, 1996, 47-bet.
11. Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. -T. 1994.
12. Rahimjonov N. Nur hurlik timsoli. //Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. - Toshkent: Fan, 2007, 49-bet.
13. Rahimjonov N. Shoir va davr. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 184-bet.
14. Rahimjonov N. XX asr o'zbek poemasining rivojlanish xususiyatlari.- Toshkent: 1990.
15. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. -Toshkent: Fan. 2007, 37-87-bet.

16. Sharafiddinov O. Inson qalbi manzaralari //Go‘zallik izlab.-Toshkent: 1985, 57-64-bet.
17. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent: “Sharq”, 2004, 650-bet.
18. Qosimov Y. Istiqlol she‘riyati. // Qo‘shjonov M, Meli Suvon. Abdulla Oripov. Toshkent: Ma‘naviyat, 2000, 135-bet.
19. Qo‘shjonov M. Kamalakdek serjilo. // Abdulla Oripov. Yillar armoni. - Toshkent: 1984, 22-bet.
20. Qo‘shjonov M. Onajonim, she‘riyat.Toshkent: «O‘qituvchi», 1984, 40-bet.
21. Mamajonov S. She‘riy so‘z va estetik ta‘sir. // O‘zbek tili va adabiyoti. 1982.-№ 2, 27-33-bet.
22. Meliyev S. Jonli so‘z qudrati. // Yoshlik. 1989. 16-son. 73-75-betlar.
23. Oripov A.Umr qisqa, qarz esa katta... // Sharq yulduzi. 1991.-№ 4, 154-158-bet.
24. Oripov A. O‘kinch va faxr. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 1991. 5-aprel.
25. Afro‘z Farida. Ko‘zim manim. Toshkent. Sharq. 1999.
26. Afro‘z Farida. O‘zimdan o‘zimgacha. Toshkent. Sharq. 2000.
27. Ali U. Ko‘ngilga sayr. –T.: Yangi asr avlodi, 2009.
28. Hamdamov U. Ijodkor va davr. //O‘zbek tili va adabiyoti, 2002. №6.
29. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she‘riyati. –Toshkent: Adib, 2012.
30. Mustaqillik davri adabiyoti. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2006.
31. Namozov M. Tumanlarni qo‘porar tog‘lar. //Vatan, 1995, №22.
32. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
33. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: Fan, 2007.
34. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. -T.: Akademnashr, 2010.
35. Rahmon Sh. Rangin lahzalar. –Toshkent: SHarq, 1978.

36. Rahmon Sh. Uygʻoq togʻlar. –Toshkent, 1986.
37. Solijonov Y. Hozirgi oʻzbek lirikasi. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma, 2009.
38. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
39. Yoʻldosheva M. Yangilanishlar manguligi. Toshkent: Adib, 2011.
40. Oʻzbek adabiy tanqidi. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: Turon-Iqbol, 2011.
41. Gʻaniev I., Afoqova N., Gʻanieva A. Shavkat Rahmon olami. –Toshkent: Akademnashr, 2013.
42. Gʻofurov I. Sheʼriyat – izlanish demak. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1984.
43. Shavkat Rahmonni xotirlab. –Toshkent: Sharq, 2012.
44. Shamolda sham koʻtarib... Farida Afroʻz sheʼriyati: talqinlar, taqrizlar, suhbatlar. Toshkent. Davr press. 2010.
45. [http:// ziyonet.uz](http://ziyonet.uz) internet sayti.
[http:// kh-davron.uz](http://kh-davron.uz) internet sayti.
[http:// e-adabiyot.uz](http://e-adabiyot.uz) internet sayti.